



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2024-yil
18-iyul
payshanba

№ 29 (4671)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

YURTNING DOVYURAK POSBONLARI

Xorazm viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni xodimlari o'zlariga birlashtirilgan hududlarda jamoat tartibini saqlash, aholi xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha samarali ishlarni amalga oshirishmoqda.

O'tkazilayotgan «Xavfsiz hudud», «Nazorat», «Tig'», «Qidiruv», «Tun» kabi profilaktik tadbirlarda ko'plab huquqbuzarliklar aniqlanib, qonun ustivorligi ta'minlanyapti. Bunday muhim vazifalarni amalga oshirishda yurtimizning dovyurak posbonlari kun-u tun hushyorlik bilan xizmat qilishmoqda.

O'z muxbirimiz.



XALQ BILAN MULOQOT

BIZGA QANDAY MUROJAATINGIZ BOR?

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida «Inson manfaatlari – oliy qadriyat!» degan tamoyil ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois bevosita davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan muammolarni «mahallabay» o'rganish va odamlarni rozi qilishning mutlaqo yangicha, samarali tizimi ishga tushirildi.

Farg'ona viloyatining olis va chekka hududlarida o'tkazilayotgan sayyor qabullar ham fuqarolarning roziligiga sabab bo'layotganini e'tirof etish zarur. Mutasaddilar har bir fuqaroga «Bizga qanday murojaatingiz bor?» deya yuzlanib, samimiy muloqot qilayotgani, murojaatlarda ko'tarilgan muammolarning ildiziga cha kirib borilayotgani qabullarning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Ya'qinda Qo'shtepa tumanida tashkil etilgan sayyor qabulda 22 nafar fuqarodan turli masalalarda murojaatlar qabul qilingan bo'lsa, ulardan 6 tasi shu joyning o'zida ijobiy yechim topdi. 10 ta murojaat yuzasidan malakali huquqiy maslahatlar berildi. Ko'rib chiqilishi muddat talab etadigan 6 ta murojaat tegishli mas'ullarga topshirildi.

– Odatda fuqarolar viloyat IIB rahbarlariga biror murojaat bilan kelsa-yu, basharti uning muammosi boshqa

huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan bog'liq bo'lsa, murojaatning hal etilishi biroz cho'zilib ketayotgan edi, – deydi viloyat IIB Murojaatlar bilan ishlash guruhi bosh inspektori, kapitan Oblobergan Yoqubov. – Shu bois sud-huquq masalalari bo'yicha kelib tushayotgan ariza va shikoyatlarni bir joyda

ko'rib chiqish, har tomonlama chuqur o'rganish va ovoragarchiliklarning oldini olish maqsadida sud, prokuratura, ichki ishlar, majburiy ijro, adliya va bojxona boshqarmalari boshliqlarining Xalq qabulxonalarini bilan hamkorlikdagi ommaviy sayyor qabullari tashkil etildi. Reja-jadval asosida viloyatimizning



turli hududlarida 11 marotaba tashkil etilgan bunday qabullarda 209 ta murojaat qabul qilingan bo'lib, 100 ga yaqin murojaatlar bir joyning o'zida, tezkorlik bilan ijobiy hal etildi.

Furqat tumanidagi 3-sektor hududiga qarashli «Bekobod» MFYda yashovchi Muhayyo Jo'rayeva qo'lida hunari borligi, ammo tikuv mashinasi yo'qligi bois qilgan murojaati joyida ijobiy yechim topib, ayolga subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berildi. Tumanning «Kaldushon» MFYda yashovchi Zohidjon Xolmurodov esa vaqtincha ishsiz ekanligini bayon qilib, ishga joylashish masalasida amaliy yordam so'ragan edi. Tumandagi 24-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotiga qorovul lavozimiga ishga joylashtirildi.

Uchko'prik tumani «Katta kenagas» MFYda yashovchi Ne'matjon Sul-tonov ham ommaviy sayyor qabulda ishtirok etib, chorvachilik faoliyatini

yo'lga qo'yish maqsadi borligini, shu bois imtiyozli kredit olishda amaliy yordam berishni so'radi. Uning ezgu tashabbusi ham qo'llab-quvvatlanadigan bo'ldi. Bank xodimlari bilan hamkorlikda bo'lajak chorvadorga imtiyozli kredit ajratildi.

Ijobiy hal etilib, fuqarolarning roziligiga sabab bo'lgan bu kabi murojaatlar haqida yana ko'plab misollar keltirish mumkin. Eng muhimi, sayyor qabullarda aholining bugungi kundan roziligi va davlat organlariga bo'lgan ishonchi yanada ortmoqda. Buni qabuldan qaytayotgan insonlarning chehrasida zohir bo'layotgan minnatdorlik kayfiyatidan ham anglab olish mumkin.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

MINNATDORLIK

QO'LINGIZ DARD KO'RMASIN!

IIV Qorovul qo'shinlarida o'n yil, qo'riqlash va profilaktika xizmatida yigirma yildan ortiq xizmat qildim. Pensiyaga chiqqanimdan so'ng Qarshi shahar IIOFMB Faxriylar kengashi a'zosi sifatida yosh xodimlarga kasb sirlarini o'rgatib, «ustoz-shogird» an'anasi rivojiga hissa qo'shdim.

O'tgan yili insult olib, yo'tib qoldim. Shundan so'ng viloyat IIB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi shifokorlari uyimga kelib, meni tibbiy ko'rikdan o'tkazishdi. Ko'rik natijalariga ko'ra, ambulator tartibda davolanishni tavsiya etishdi. IIV Markaziy gospitalida davolanish lozimligini bildirib, barcha hujjatlarni tayyorlab berishdi.

Joriy yil iyun oyida IIV Markaziy gospitalida davolandim. Bu yerda barcha kerakli dori-darmonlarni berishdi. Shirinso'z shifokor-

lar va hamshiralardan muolajalar oldim. Hozir sog'lig'im ancha yaxshi. Buning uchun shifoxona rahbariyatiga, malakali shifokorlarga rahmat aytaman. Osoyishtalik posbonlari salomatligini tiklab, yana xizmatga qaytarayotgan, faxriylarning sog'lig'ini mustahkamlab, hayot shamchirog'ini yoqayotgan o'z sohasining bilimdonlariga qo'lingiz dard ko'rmasin, deymen.

Almat TEMIROV,
iste'fodagi kapitan.
Qashqadaryo viloyati.



Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX JTSS Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi xodimlari To'rtko'l tumani Veterinariya bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda savdo obyektlarida oziq-ovqat mahsulotlarining veterinariya-sanitariya qoidalariga amal qilingan holda sotilishi yuzasidan nazorat tadbirlarini o'tkazishmoqda.



HAMJIHATLIK – NATIJADORLIK GAROVI

Mirzo Ulug'bek tumani IIB 1958-yil sentabr oyida tuman aholisi xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash maqsadida o'z faoliyatini boshlagan.

Hozirgi kunda tumanda tezkor-kriminogen vaziyatdan kelib chiqqan holda, 5 ta Ichki ishlar bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda. Mazkur IIBlar salkam 310 ming nafar aholining tinchligini ta'minlashga mas'ul.

– Har bir IIBda boshliq va uning o'rinbosari, tezkor vakil hamda surishtiruvchilar, HPB, Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi, navbatchilik qismi xodimlari xizmat faoliyatini olib boradi, – deydi tuman IIOFMB Kadrlar bilan ta'minlash guruhi katta inspektori, **mayor Akrom Yahyoyev.**



Tuman IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi jinoyatlarni tergov qilish bo'linmasi tergovchisi, **leytenant Abdul-fayz Normamatov**ning ta'kidlashicha, tergov faoliyatida «Inson qadri uchun» degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh qilishni tashkil etish, qonun ustuvorligini va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili bo'limdagi har bir tergovchining bosh maqsadidir.

Tuman IIOFMB Kadrlar bilan ta'minlash guruhi inspektori **leytenant Go'zal Ibragimova** kitobxon xodimalardan biri. U ko'proq badiiy asarlar mutolaasiga qiziqadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat samaradorligini oshirishda jamoadagi individu-



al-psixologik xususiyatlarni o'rganish, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit barqarorligini ta'minlash muhim omillardan biridir. 2022-yildan buyon tuman IIOFMB Psixologik ta'minlash guruhi katta psixologi lavozimida xizmat qilayotgan

ta'minlash faoliyatimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan, – deydi yosh xodima.

Kapitan Azamat Samiyev tumandagi «Katta Yalong'och ota» mahallasida 2019-yildan buyon profilaktika inspektori lavozimida xizmat qiladi. U ichki ishlar organlariga 2013-yilda qabul qilingan. Dastlab IIV JIEBB 1-tergov hibsxonasi Tartibot va qo'riqlash bo'limi nazoratchisi, katta nazoratchisi bo'lgan. Keyin profilaktika yo'nalishida xizmatini davom ettirishga bel bog'lagan.

Unga birlashtirilgan mahallada doimiy istiqomat qiladigan aholi soni besh ming uch yuz nafardan oshsa-da, hududga kirib-chiqishlar undan bir necha karra ko'pligi alohida mas'uliyat yuklaydi. Shu



sabab bu yerga aynan A. Samiyevning qo'yilgani ham bejiz emas. Unda yetarlicha tajriba va malaka bor. Uning sa'y-harakatlari bilan og'ir turdagi va boshqa jinoyatlar soni yildan-yilga kamaymoqda.

Xodimlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida kitobxonlikni ommalashtirish orqali ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish maqsadida tuman IIB rahbariyati tomonidan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu yerda tashkil etilgan mo'jaz kutubxonada

leytenant E'zoza Boyxo'rozova ayni shu vazifalarni sidqidildan bajarishga harakat qilmoqda.

– Shaxsiy tarkib o'rtasida salbiy holatlar kelib chiqishining oldini olish, jamoalarda ma'naviy-ruhiy muhit barqarorligini

o'zbek va jahon adabiyotining durdona asarlaridan tortib sohaga ixtisoslashgan qo'llanmalarni ham topish mumkin...

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

Сотрудничество

Министерством внутренних дел Республики Узбекистан и Национальной библиотекой Узбекистана имени Алишера Навои подписан меморандум о сотрудничестве, направленный на дальнейшее повышение эффективности деятельности по воспитанию сотрудников, военнослужащих, слушателей, курсантов и учащихся образовательных учреждений системы МВД в духе уважения к общечеловеческим и национальным нравственным ценностям, формирование их гармонично развитыми личностями.



В мероприятии приняли участие директор Национальной библиотеки Умида Тешабаева, сотрудники библиотеки, представители руководства, Департамента духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения МВД.

Заместитель министра внутренних дел – начальник Департамента духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения генерал-майор Даврон Назармухамедов подчеркнул значимость реализации меморандума, акцентировал внимание на необходимости целенаправленного продолжения популяризации чтения среди

личного состава, формирования уважительного отношения к книге как к источнику знаний, основы саморазвития.

В числе приоритетных задач меморандума совместная реализация образовательных, научных и культурных программ, использование и пополнение электронных ресурсов библиотечного фонда, совершенствование информационно-библиотечной системы ведомства, проведение научно-практических конференций, семинаров, иных мероприятий по повышению читательской культуры.

Соб. корр.

Диалог с населением

ЭФФЕКТ ВЫЕЗДНЫХ ПРИЕМОВ

Выездные приемы руководителей правоохранительных органов, проводимые на местах, способствуют решению проблем, волнующих граждан.



Очередной выездной прием руководителей секторов был организован для жителей Нуратинского района.

В ходе приема начальника УВД Навоийской области полковника Азата Тасбаева рассмотрено более 30 обращений граждан. В основном они касались вопросов трудоустройства, лечения, получения

льготных кредитов, а также судебно-правовой сферы.

Жительница махалли Эшон Судар Саодат Жуматова состоит в «женской тетради».

– После смерти мужа – единственного кормильца семьи, осталась с четырьмя детьми. Средств на завершение ремонта дома, начатого супругом, нет, – говорит она. – Мою проблему

решили положительно: обещали непременно помочь.

Рузбоя Ширинова привело на прием аварийное состояние уличных столбов освещения. После того, как ветеран детально изложил суть вопроса, был найден способ его решения.

Элёр Туробов, несмотря на наличие высшего образования, не мог устроиться на работу.

Благодаря выездному приему он получил направление для трудоустройства в одну из школ района.

Каждое озвученное в ходе выездного приема обращение взято на контроль. Девяти жителям даны юридические консультации.

Махлиё ХОЛОВА,
соб. корр.

Навоийская область.



«XAVFSIZ MAHALLA» KONSEPSIYASI – AMALDA

CHO'L BAG'RIDAGI BO'STON

TINCH VA OSOYISHTA HUDUDGA AYLANMOQDA

Markaziy Farg'ona cho'llarida joylashgan Yozyovon tumani keyingi yillarda barcha soha va tarmoqlar bo'yicha jadal rivojlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik, hunarmandchilik va tomorqadan samarali foydalanishda yozyovonliklarning oldiga tushadigani yo'q.

E'tiborlisi shundaki, iqtisodiy jihatdan yuksalib borayotgan mazkur tumanda jinoyatchilikni jilovlash borasida ham yaxshigina natijalarga erishilyapti. Masalan, joriy yilning o'tgan 6 oyida tumanda umumiy jinoyatlar avvalgi yillarning mos davriga nisbatan 14,7 foizga kamayishiga erishildi. Mavjud 33 ta mahalladan 22 tasida umuman jinoyat qayd etilmadi. 2023-yilda 8 ta mahalla «qizil» toifada bo'lgan bo'lsa, joriy yil boshida ulardan 6 tasi bu toifadan chiqarildi. O'g'irlik, xususan, velosiped o'g'irlash, qoramol o'g'irlash jinoyatlari, yo'l-transport hodisalari, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, ko'cha va jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlar, ayollar jinoyatchiligi sezilarli kamaydi. Jinoyatlarni fosh etish darajasi ham yaxshilandi.

– Ijobiy ko'rsatkichlar ortida shaxsiy tarkibimizning o'zaro hamjihatligi turibdi, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Murodjon Qunduzov. – Tumandagi

yili» deb e'lon qilingach, asosiy e'tiborni shu yo'nalishga qaratdik. Tuman hududida jinoyat sodir etilishi ehtimoli yuqori bo'lgan 325 ta joyga zamonaviy kuzatuv kameralari o'rnatildi. Bu borada tuman hokimligi, mahalla faollari va homiyilar bizga yaqindan yordam berishdi. Ichki ishlar bo'limi binosida katta situatsion markaz tashkil etib, kemeralarni ushbu markazga integratsiya qildik. Hozir shu yerda tumandagi barcha gavjum joylar, asosiy yo'llar, chorrahalar, bozorlar, istirohat

xizmat avtomashinasi sovg'a qilib berildi.

Bo'lim boshlig'ining qayd etishicha, «qizil» toifadagi mahallalarda «xonadonbay» va «fuqarobay» usulida o'rganishlar olib borilib, har bir oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhit tahlil qilib chiqilgani ham jinoyatchilikni jilovlashda muhim omil bo'lyapti. Probatsiya nazoratidagi va



qoldirmaslik, sog'lom hayotga qaytarish choralari ko'riylapti.

Bulardan tashqari, «Payshanba – huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni», «Xavfsiz tun», «Tig'» kabi tadbirlar ham

muntazam tashkil etilmoqdaki, ezgu maqsadni ko'zlagan ushbu tadbirlar hududlarda osoyishtalikni ta'minlashda yaxshi samara beryapti.

Hozirgi kunda oila-turmush doirasidagi jinoyat va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish eng dolzarb vazifa sanaladi, – deydi tuman IIBning xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Feruza Ortiqova. – Shu bois tuman hokimligi, mahalla faollari bilan birgalikda profilaktik hisobda turgan 264 nafar ayollar bilan tizimli ishlarni yo'lga qo'ydik. Ularga murabbiylar biriktirilib, huquqshunos, psixologlar ishtirokida targ'ibot tadbirlarini doimiy tarzda

tashkil etyapmiz. Natijada joriy yilning o'tgan yarmida oila-turmush doirasidagi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. 61 ta oila-turmush doirasidagi nizoli holatlar mahallalardagi tegishli komissiya a'zolari bilan hamkorlikda ko'rib chiqilib, 43 ta oila ajralib ketishdan saqlab qolindi.

Tumanda jinoyatchilikni jilovlashda faxriylarning ko'magi ham katta bo'layotganini alohida e'tirof etish joiz. Tuman IIB boshlig'ining maslahatchisi, Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi mayor Alijon Po'latov doimo shaxsiy tarkib bilan birga. Yosh xodimlardan maslahatlarini ayamaydi. O'tkaziladigan tadbirlar va «mahallabay» o'rganishlarda ham faol ishtirok etib, yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, har bir mahalladagi profilaktika inspektorlariga ham faxriylardan maslahatchilar biriktirilgan.

Hamkorlikda amalga oshirilayotgan bu kabi choratadbirlar «Cho'l bag'ridagi bo'ston» deya ta'riflanadigan Yozyovonni tinch va osoyishta hududga aylantirmoqda.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



kriminogen vaziyatni tez-tez tahlil qilib turamiz. Tahlillardan kelib chiqib, jinoyat ko'rsatkichi og'ir hududlarga alohida e'tibor qaratyapmiz. Masalan, viloyat IIB rahbariyati tomonidan «2024-yil – Farg'ona viloyati ichki ishlar organlarida raqamlashtirish

bog'lari va «qizil» toifadagi mahallalar bemaol kuzatilib, kriminogen vaziyat to'liq nazorat qilinyapti. Raqamlashtirish borasida amalga oshirgan ishlarimiz viloyatda eng namunali deb topildi va yaqinda boshqarma rahbariyati tomonidan zamonaviy

profilaktik hisobda turganlar, jazoni ijro etish muassasalaridan qaytganlar, nizoli oilalar, spirtli ichimlikka ruju qo'yanlar va o'zaro adovati bor shaxslar bilan doimiy tarzda muloqot yo'lga qo'yilgan. Ularni ish bilan ta'minlash, bo'sh vaqtini

Ветераны — наша гордость

ЖИВАЯ ЛЕГЕНДА СФЕРЫ

Сегодня Фазлиддин еще крепче утвердился в своем выборе будущей профессии, присутствуя на встрече с полковником в отставке Эргашем Абдукодировым, долгое время возглавлявшим Сырдарьинский районный отдел внутренних дел. В ходе диалога ветеран подробно ответил на интересовавшие подрастающего поколения вопросы.

...Просторный ухоженный двор. Переступив порог, ощущаешь аромат цветов. Вдоль аллеи благоухают красные, желтые, белые цветы. Ветеран с заботой ухаживает за виноградником, ветви которого аккуратно нанизаны на шпалеры. Хозяин приветливо встречает дюжину подростков в сопровождении сотрудников органов внутренних дел. Молодежь почтительно здоровается. Ветеран приглашает в своеобразный дом-музей.

Мальчишки и девчонки с интересом разглядывают экспонаты: ретро-приборы криминалистики, фотоаппараты прошлой эпохи, книги. Взрослые дают время, чтобы молодежь освоилась и обменялась первыми впечатлениями от увиденного. Затем начинается общение. Заместитель начальника Сырдарьинского РОВД подполковник Хасан Хазратов знакомит учащихся с хозяином дома — легендарным человеком, отстаивавшим закон.

Слово берет ветеран. Он неспеша начинает рассказ о былом. Стены растворяются перед мысленным взором юных сердец, виднеется горизонт в лучах солнца. И вот уже слышен всплеск Сырдарьи. В густых зарослях тукая вдоль берегов прячется преступник. Старенький «ГАЗ-69» урчит на колдобинах, застревает в болотистой местности. Молодой лейтенант выпрыгивает из машины и пускается в погоню. Преступнику, жертвой которого стали женщина и ее ребенок, нечего терять. Он вступает в отчаянную схватку. В руках злоумышленника блеснул нож. Но оперативник ловко уворачивается и одним ударом сбивает его с ног...

Фазлиддин и его друзья стараются не пропустить ни слова рассказчика. Сюжет повествования меняется. Аэропорт Ташкента. Эргаш и двое оперативников уже долго выслеживают опасного налетчика, который ограбил дом и убил случайную свидетельницу.



Грабитель пытается покинуть город на самолете. Возможно, билет куплен на другое лицо по поддельному паспорту. В воздушной гавани столько пассажиров, что в толпе опознать человека по едва заметным приметам дело довольно трудное. На третьи сутки наметанный глаз Эргаша выхватил из толпы подозрительного типа с длинными волосами. На плечи накинута модная куртка. Это — он!

Вычислить, обезоружить и задержать преступника в столь людном

месте требует большого профессионализма. С этой задачей группа справилась успешно.

Полковник в отставке Эргаш Абдукодиров три десятка лет добросовестно прослужил в органах внутренних дел. В течение пятнадцати лет возглавлял РОВД. Находясь на заслуженном отдыхе, ветеран продолжает щедро делиться опытом и житейской мудростью.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.

Республика Каракалпакстан

В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ - ПРОФИЛАКТИКА

Сев на самолет рейса «Нукус–Ташкент», Малика Толибаева еще раз проверила содержимое сумочки. Обнаружив пропажу 500 долларов США, не сразу сообразила, как это могло произойти.

Вспомнилось, что при проверке она доставала билет, выложив все из сумочки. Это была единственная правдоподобная версия. Придя к такому заключению, женщина обратилась в отделение внутренних дел.

На основе заявления сотрудники проверили

записи с камер видеонаблюдения и установили личность воришки. Деньги были возвращены пассажирке, а злоумышленника привлекли к ответственности.

Это — один из эпизодов деятельности отделения обеспечения безопасности в аэропорту «Нукус».



Год от года растет поток желающих воспользоваться услугами надежного и быстрого вида транспортного сообщения. Это налагает большую ответственность на личный состав отделения, который отвечает за безопасность и общественный порядок в воздушной гавани.

— С целью предотвращения нештатных ситуаций с гражданами налажено проведение профилактической работы, — говорит начальник отделения майор Баймурат Кутлимуратов. — Приоритетной задачей сотрудников органов внутренних дел является борьба не столько с последствиями преступлений, сколько деятельность на их

упреждение. Сотрудники отделения вносят вклад в проведение профилактических мероприятий также в школах, колледжах, махаллях, на пред-

приятиях, в организациях, расположенных в непосредственной близости к зоне их ответственности.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



Ражаббой ака ҳамиша ўз отаси билан фахрланади. Ҳақиқий ички ишлар органлари фидойиси бўлган Аvez Очиллов бахтини масъулиятли ва машаққатли соҳадаги фаолиятдан топди. У Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиси бўлган. Урушдан сўнг йигирма саккиз йил мобайнида ички ишлар органларида турли лавозимларда хизмат қилди. Шиори ҳалоллик, бировга яхшилик қилиш бўлган бу инсонни кўпчилик жуда қадрларди. Бундай муносабатни кўрган Р. Очиллов ота изидан боришга аҳд қилди.

Шу боис ўрта мактабда ўқиб юганидаёқ, жисмоний тарбия фани ўқитувчиси Ҳамро Холиқовдан кураш сирларини пухта ўзлаштирди. Уша пайтлар туман ва вилоят биринчилиги мусобақаларида фахрли ўринларни эгалларди...

– Автомактабни тугатгач, Германияга икки йил ҳарбий хизматга юборилдим, – дейди Ражаббой ака у кунларни эслаб. – 1975 йили март ойида ички ишлар органларига ишга қабул қилиндим. Дастан, Бухоро шаҳар ИИБда оддий милиционер, йўл-патруль хизмати ходими лавозимларида ишладим. Бу орада Россия Федерацияси ИИБ юридик институтида ўқиб, уни 1978 йил тугатдим. Кейинчалик Бухоро давлат педагогика институти ва Тошкент давлат юридик университетида ҳам сиртқи йўналишда таҳсил олдим.

Ражаббой ака навқирон 28 ёшида Бухоро шаҳар ИИБ ДАН бўлими бошлиғи лавозимига тайинланди.

– Ражаббой Очилловни Бухоро шаҳар ДАН бўлимида иш бошлаганидан буён биламан, – дейди Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист Жаҳонгир Исмоилов. – Ушанда у 4-сонли таълим мактабида «Ёш йўл ҳаракати назоратчилари» гуруҳини тузди. Уларга махсус кийим-бош тиктирди, кўкрак нишони берди, махсус сабоқлар ташкил этди. Мактаб олдида ҳаракатни тартибга солишни ўргатди. Натижада «Светофор» республика кўрик-танловида шу гуруҳ биринчи ўринни олди. Шундан сўнг «Ёш йўл ҳаракати назоратчилари» гуруҳлари вилоят марказидаги бошқа мактабларда ҳам ташкил этилди. Айти пайтда ўрта таълим муассасалари олдидаги йўллар бўйида «Тўхта, бу ердан болалар мактабга ўтади» таблоларини ҳам жорий

эттирди. Шаҳардаги автобазаларда жамоатчилик асосида автоинспектор гуруҳлари ташкил қилинди. Уларга ҳам махсус кийим-бош, кўкрак нишони ва гувоҳномалар берилди. Улар мактаблар, бозорлар

ишлаган даврида республикада биринчилардан бўлиб, «Халқ посбонлари» гуруҳини ташкил қилди. Аввал пешкуликлардан 50 нафар халқ посбони лавозими ташкил этилган бўлса, Фиждувон туманида

ни ўқитди, уйли-жойли қилди. Ўғилларининг икkitаси Азамат ва Алишер отасининг изидан борди. Бири Жондор тумани ИИБ 1-сонли ИИБ бошлиғи, иккинчиси ИИБ МОМБ Бухоро вилояти бўйича махсус отряд командири. Иккаласи ҳам подполковник унвонида. Айтганча, Алишер Очиллов давлатимизнинг юсак мукофоти – «Жасорат» медали билан тақдирланган. Кейинги фарзандлари – Жаҳонгир тадбиркор, Бобир билан Жобир фермер, қизлари Маҳбуба Очиллова ўқитувчи. Уларнинг бир этак фарзанду зурриёдлари айти

тарбиялаш ишларини кучайтириб келмоқда.

Ражаббой Очилловнинг узоқ йиллар жамоат хавфсизлиги хизмати тизимида ишлаганлигини инобатга олиб, унга Жондор тумани ИИБдан 2 нафар ёш профилактика инспектори – катта лейтенант Иззат Очиллов («Чорзона» МФИ), лейтенант Мадийер Эркинов («Поччойи» МФИ) лар бириктирилди. Уларга асосан фуқаролар билан муомала қилиш ва жиноят содир этилишининг олдини олиш бўйича маслаҳату кўрсатмаларини бериб, етук ходим бўлишлари учун ўз тажриба ва малакаларини ўргатиб келмоқда. Шу боис ҳам уларнинг маҳаллалари жиноятдан холи ҳудудга айланмоқда. Ўтган ойлар давомида иккала маҳалла ҳам «сарик»дан «яшил» тоифага ўтди.

Қисқаси, истеъфодаги полковник Р.Очиллов толеи кулган инсонлардан. Чунки у шу касби орқали кўп нарсга эришди. Ўзининг меҳнатсеварлиги, соҳани яхши билиши, ҳушмуомалалиги билан устоз шогирдларининг ҳурматини қозонди, давлатимиз ва раҳбарият томонидан муносиб эътироф этилди. Жумладан, ички ишлар органлари фахрийси қимматбахо қўл соати, 1, 2 ва 3-даражали «Бенуқсон хизматлари учун» кўкрак нишони билан тақдирланган. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Автомотоҳаваскорлар кўнгилли жамиятининг фахрий аъзоси ҳамдир. 2023 йили эса «Маҳалла фахрийси» кўкрак нишони олишга муяссар бўлди.

Дарвоқе, Ражаббой ака табиатан шоир ҳам. У лирик қаҳрамонларининг ички кечинмалари, руҳий ҳолати, ҳиссиётларини жонли, табиий тарзда тасвир эта оладики, бу кайфият унинг шеърларини ўқиган кишига ҳам «юқади». Мухлислар қаҳрамонга руҳан, қалбан яқинлашади. Бугунги кунгача «Оқ тулпорим», «Навработ наволари», «Биринчи баҳор» тўпламлари чоп этилган қаҳрамонимизнинг ёшларга насиҳату ўғитлари жамланган «Ота ўгити» китоби нашрдан чиқиши арафасида...

Мирзокул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.

ШАРАФЛИ ЙЎЛ ДАВОМИ

ва аҳоли кўп ўтиб-қайтадиган чорраҳаларда ҳаракат хавфсизлигини таъминлашди.

1989 йили бир муддат вилоят ИИБ ДАН бошқармасида биринчи ўринбосар, кейинчалик вилоят ИИБ ЙҲХБ бошлиғи лавозимларида хизмат қилган

Р. Очилловнинг фаолияти истиқлолнинг дастлабки йилларида янада самарали бўлди. 1994 йили 5-микрорайондаги Абдурахмон Жомий кўчасида 30 хонадонга мўлжалланган 5 қаватли уйни бошқарма ҳисобидан қурдиришга эришди. Ушбу хонадонлар узоқдан қатнайдиган ва уй-жойи бўлмаган ходимларга берилди.

Бундан ташқари, қаҳрамонимиз ташаббуси билан вилоятдаги барча ЙҲХБ ходимларининг уйларига телефон ўрнатилди. Яна 15 нафар ходимга Бухоро шаҳридан ер участкаси, 32 нафар ходимга эса квартира олиб берилди. Шунингдек, бошқарма ҳисобига 13 та янги «Форд» олинди ва бошқа хизмат автомашиналари янгиланди.

1998–2002 йиллар Пешку ва Фиждувон туманлари ички ишлар бўлимида бошлиғи лавозимида



150 нафар ходим саралаб олинди. Кейинчалик уларнинг кўпчилиги ички ишлар органларига қабул қилинди ва айти пайтда раҳбарлик лавозимларида ишлаб келишяпти.

Ражаббой Очиллов мурабийлик қилган ёшларнинг кўпчилиги ҳалол меҳнатлари ва шарафли хизматлари билан эл назарига тушган. Чунончи, шогирдлари орасида фарзандлари ҳам бор.

Ражаббой ака умр йўлдоши Тожигул опа билан биргаликда беш ўғил ва бир қизни тарбиялаб вояга етказди. Барчаси-

пайтда бобо-бувусининг қаватига киришган.

Лавҳамиз қаҳрамони 2002 йил ноябрь ойида ички ишлар органларидан полковник унвони билан истеъфога чиққач, ўтган давр мобайнида давлат ва жамият ҳаёти билан боғлиқ ҳамда ёш авлодни тарбиялаш, устоз-шогирд аъналарини борасида бир қатор ишларни амалга оширди. Жумладан, вилоят ИИБ Фахрийлар кенгашида ташкил этилган «Фахрийлар мактаби» аъзоси сифатида ёш ходимларни Ватан ва хизмат бурчига садоқат руҳида

AN'ANA



Chortoq tumani IIB Jamoat xavfsizligi xizmati Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasi profilaktika inspektori, leytenant Jamshidbek Turg'unov o'z kasbini puxta biladigan, tajribali xodim, bo'linma katta profilaktika inspektori, kapitan Nizomjon Najmiddinovga mu-rabbiy etib birlashtirilgan. Nizomjon «Alixon» mahallasiga mas'ul. U o'tgan yili «Bozorboshi» mahallasida profilaktika inspektori bo'lib ish boshlagan Jamshidbekka ish

yuritish, hujjatlarni tartibga keltirish, murojaat bilan kelgan fuqarolar bilan ishlash borasida maslahat va yo'l-yo'riqlar berib keladi. Ustoz va shogird ikki yonma-yon mahallada ishlaganlari uchun ham tez-tez ko'rishib turish imkonini bor.

Nizomjon shogirdi Jamshidbek bilan birgalikda huquqbuzarliklarning oldini olishning dastlabki tadbirlarini amalga oshirish, o'ziga birlashtirilgan hududlarning demografik xususiyatlarini inobatga

USTOZ
IZIDAN

olgan holda, huquqbuzarliklar va alohida turdagi jinoyatlar sodir etilishining sabab va sharoitlarini aniqlash, profilaktik ro'yxatga olingan, tarbiyaviy jihatdan nosog'lom oilalar, muqaddam sudlangan fuqarolar bilan profilaktik ishlar olib borish, shuningdek, ozodlikdan mahrum etilib, jazo muddatini o'tab qaytgan fuqarolarni ishga joylashtirishda ijobiy natijalarga erishib kelmoqda.

Tuman hududida ijtimoiy-siyosiy va tezkor vaziyatni barqarorlashtirish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish borasida o'tkazilayotgan «Antiteror-Tozalash», «Qoradori», «Arsenal», «Oriyat» va «Qidiruv» kabi tadbirlarda ustoz-shogirdning faol ishtirokini ko'rish mumkin.

Joriy yil boshidan buyon kapitan Nizomjon Najmiddinov 180 ta ma'muriy huquqbuzarlik yuzasidan bayonnoma rasmiylashtirdi, 4 ta jinoyatni ochishda ishtirok etdi. Olib borilgan sa'y-harakatlari samara berib, «Alixon» mahallasi jinoyatdan xoli hududga aylanib, «yashil»

toifaga kiritildi. «Bozorboshi» esa «sariq» toifada, uning «yashil» toifadagi hududga aylanishi uchun harakatlar qilinmoqda.

– Mahallamizda uzoq muddatga xorijga ishlagani ketgan fuqarolarning 35 nafarini yashash xonadoniga qaytarishda ustozim o'g'itlariga amal qilgan holda ish tashkil etdim. Bandlik bo'limiga rasmiy ravishda xat bilan chiqib, migrantlarni ishga joylashtirish masalasida murojaat qilib, 8 nafarini ishga joylashtirishga erishdim, – deydi Jamshidbek. – Ustozim nafaqat ishda, balki hayotda ham maslahatlarini ayamaydi. Ayniqsa, muammolar oldida o'zini yo'qotmaslik, doim olg'a harakat qilish kerakligi haqida ko'p uqtiradi.

Tuman ichki ishlar bo'limi rahbariyati tomonidan doimo ezgu tashabbuslar qo'llab-quvvatlanadi. Faxriylar holiday xabar olish, ular ishtirokida uchrashuvlar uyushtirish, bir so'z bilan aytganda, uzoq yillik tajribaga ega ustozlarga hurmat ko'rsatish barobarida, ular tajribalaridan foydalanishga alohida ahamiyat beriladi. Bu esa jamoadagi ahillikni ta'minlab, birgalikda muammolarni hal etish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

UZOQ YILLIK
TAJRIBA

Andijon davlat tillar pedagogika institutini tamomlagan Odilbek otasi – Andijon viloyati IIB Tergov bo'limi tergovchisi Olimbek Mamashev izidan borishga qaror qildi. Uzoq yillar Andijon viloyati IIB maxsus bo'linmasida faoliyat yuritdi, so'ngra hududiy profilaktika inspektori sifatida xizmat qildi. Ukasi Oybek ham otasi va akasi izidan bordi.

Odilbek aka va Erkinoy opa juftligining mevasi bo'lgan Nurbek oilaviy an'analarni davom ettirdi. Hozirda u PPX batalyoni 2-otryadining safdor xodimi. Qizlari – Zulxumor, Zulfizar, Gulbahor esa bir umr hamshira bo'lib ishlagan onasining izidan borishdi.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi mayor Odilbek Mamashev raislik qilayotgan olti mingdan ziyod aholi yashaydigan «To'qqiz ariq» mahallasida keyingi ikki yil davomida birorta ham jinoyat qayd etilmagan. Bunda

rais bilan birga faollar va profilaktika inspektori, kapitan Abrorbek Hamidovning ham alohida xizmati bor.

– Odamlar bilan ishlash oson emas, – deydi Odilbek aka. – Lekin ularning qalbiga yo'l topa ol-sang, xoh oqsoqol, xoh yoshlar bo'lsin, birgalikda eng qiyin muammolarni ham hal etish mumkin.

Har yili viloyat miqyosida o'tkazib kelinayotgan «Namunali mahalla» ko'rik-tanlovida iste'fodagi mayor Odilbek Mamashev rahbarlik qilayotgan mahalla bir necha bor sovrinli o'rnlarni egalla-

gan. Mana shu yutuqlarning zamirida ham uning tashkilotchiligi, uzoq yillar davomida ichki ishlar organlarida to'plagan tajribasi qo'l kelgan, desak, aslo mubolag'a emas.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

Suratda: iste'fodagi mayor Odilbek Mamashev viloyat IIB MMI va KBTX xodimlari, katta leytenant Muhiddin Xalilov va safdor Navro'zbek Tursunov bilan suhbat chog'ida.



CHEKKA HUUDDLARDA

JAMOAT TARTIBI FIDOYILARI

Shirin shahri Tojikiston bilan chegarada, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari o'zaro tutashgan hududda joylashgan. Shu bois uni o'ziga xos chorraha, deyish mumkin. Shahar IIB xodimlari bu holatni doim nazarda tutishadi.

Amir Temur nomli mahallada noma'lum shaxs giyohvandlik moddasi savdosi bilan shug'ullanayotgani haqida xabar olindi. Mahalla profilaktika inspektoriga ko'makka yuborilgan tezkor guruh tezda uni qo'lga oldi. Gumonlanuvchining yonidan smolasimon modda topildi. Surishtiruvlar natijasida ushbu shaxs Xovos shaharchasida yashovchi 48 yoshli N. bo'lib chiqdi. U qoradori oldi-sotdisi bilan shug'ullanayotganini tan oldi.

Shirin – energetiklar shahri. Yaqinda shaharda xorijlik ish-bilarmonlar tomonidan yana bir korxonaga – 1,5 megavatt quvvatdagi bug'-gaz qurilmasi ishga tushirildi. Gap shundaki, yangi korxonaga qurilishida

minglab quruvchilar faoliyat ko'rsatdi. Ularning aksariyati mahalliy yoshlar bo'lsa, ayrimlari Yaponiya, Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarning fuqarolari. Shu bois ichki ishlar organlari xodimlarining ishi yanada ko'paydi. Birinchidan, chetdan katta sa'y-harakatlar evaziga keltirilgan qimmatbaho uskunalar, jihozlar, qurilish materiallarining talon-toroji, o'g'irligining oldini olish. Ikkinchidan, chet el fuqarolarining mamlakatimizda bo'lish qoidalari rioya etilishini ta'minlash. Qayd etish kerakki, fidoyi, tajribali xodimlar har ikki vazifani ham muvaffaqiyatli uddalashdi. Qurilish ishlari olib borilgan bir yarim yil davomida birorta o'g'irlik holati sodir etilishiga yo'l



Shirin shahar IIB Tashkiliy bo'lim Navbatchilik qismi boshlig'i kapitan Dilmurod Ashirov, navbatchi yordamchisi, safdor Rahmonqul Habibullayev.

qo'yilmadi. Shaharning turli mavzellarida vaqtinchalik yashayotgan yuzdan ortiq chet el fuqarolari tomonidan ham qonun talablari buzilmadi. Aksincha, ular ichki ishlar or-

ganlari xodimlarining professionalligi, mahalliy aholining mehmondo'stligi, odamiyligini alohida e'tirof etishdi.

– Qariyb ikki yildan beri mamlakatingizdaman, – deydi

xitoylik Nguyen Vuy. – Mahalliy «politsiya» xodimlari menda katta taassurot qoldirdi. Vaqtincha ro'yxatdan o'tishimiz uchun sanoqli daqiqalar zarur bo'ldi, xolos. Jamoat joylarida bo'lishimiz, ishga borish-kelishimizda ular biz bilan xushmuomalada bo'lishdi.

Yaqinda Shirin shahrida jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi bosqichiga o'tildi. Shaharning barcha mavzolari, aholi gavjum joylari, yo'llarini kuzatish imkonini beruvchi o'nlab zamonaviy kuzatuv kameralari o'rnatildi. Shahar IIBda situatsion markaz ishga tushirildi. Barcha kuzatuv kameralari integratsiya qilingan ushbu markaz jamoat tartibini buzish holatini tezkor aniqlash, qonunbuzarliklarni qayd etish va tezkor chora ko'rish imkonini berayotir.

Abdurahmon MUSTAQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



Shirin shahar IIB Tashkiliy bo'lim boshlig'i, podpolkovnik Abdumalik Usmonov, Tashkiliy bo'lim kanselyariya boshlig'i, safdor Jamshid Asqarov.



Shirin shahar IIB JXX HPB XQMB katta inspektori, katta leytenant O'Imasoy Mamazokirova.

YOSHLAR – BIZNING KELAJAGIMIZ

ISHLA, XIZMAT QIL, O'QI!

Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida tug'ilib o'sgan Iskandarbek Onarbekov bundan o'n yil avval ichki ishlar organlariga xizmatga kelgan. Bir necha yil Asaka avtomobil zavodini qo'riqlash bo'yicha alohida batalyon safdor xodimi sifatida faoliyat olib borgan. 2019-yilda Moliya va moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasiga o'tkazilib, qo'riqlash guruhi safdor xodimi sifatida xizmat faoliyatini davom ettirdi.

Hozirda u Andijon viloyati IIB nazorat-o'tkazish punktida xizmat qiladi. Ishdan bo'sh vaqtlarida esa sport bilan shug'ullanadi, kitob o'qiydi. Darvoqe, u IIV Akademiya-sining sirtqi bo'limida tahsil olmoqda.

– Ofitser bo'lib, Vatanimiz tinchligi yo'lida xizmat qilishda davom etishni orzu qilaman, – deydi Iskandarbek.

U maktabda o'qituvchi bo'lib ishlayotgan turmush o'rtog'i Mushtariy bilan yaqindagina 2 yoshga to'lgan Shirmonxonni voyaga yetkazmoqda.



– Biz yoshlar uchun barcha yo'llar ochiq, – deydi safdor Iskandarbek Onarbekov. – Ishla, xizmat qil, o'qi! Yoshlik – biz o'z tanlovimizni qiladigan, o'z taqdirimizni belgilaydigan ajoyib davr. Bu pallada o'z iste'dodingni qayerda qo'llashni hal qilishga kirishasan. Bunda esa eng muhimi – barcha eshiklarning ochiq bo'lishi. Mana shu ochiq eshiklar mantig'i bugun davlatimiz tomonidan yoshlar uchun yaratilayotgan barcha loyihalar zamirida mujassam.

O'zbekiston o'zining iqtidorli, jasur va tashabbuskor yoshlari bilan doimo faxrlanadi. Zero, har bir avlodimiz erishgan muvaffaqiyat O'zbekistonning yutug'i bo'lib, uning milliy qadr-qimmatini va nufuzini mustahkamlaydi.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

BUGUNGI DUNYONING GEOSIYOSIY MANZARASI

XIX asr boshida boshlangan to'rtinchi sanoat inqilobi yutuqlari asosida shakllangan postindustrial modelning o'z taraqqiyot yo'lida jadal rivojlanishi kutilmagan oqibatlarga olib keldi. Ayniqsa, XXI asrga kelib, uning global modelga o'tishi dunyodagi mavjud geosiyosiy vaziyatni o'zgartirib yubordi. Bugunga kelib esa jahon arxitekturasining insoniyatni birlashtirishga qaratilgan yagona geosiyosiy modelini xavf ostida qoldirdi.

Turli qarama-qarshi kuchlar va markazlar o'z manfaatlari yo'lida xalqaro huquq normalariga ochiqdan-ochiq zid ravishda harakat qilishlari eski va yangi ixtiloflar, mojarolarni qo'zg'ab yubordi. Natijada hozirgi kunda dunyoning 22 ta mamlakatida notinchlik hukm surib, urushlar alanga olganligini kuzatish mumkin. Fikrimizcha, bu ayanchli holatlardan to'rtta jahon geosiyosati yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

Birinchi, harbiy qudrat va salohiyatga ega bo'lgan davlatlar o'z hudud va ta'sir doiralarini kengaytirish maqsadlaridan voz kechmasdan, qurollanish poygasiga zo'r berishmoqda. Natijada 2022-yildan e'tiboran, Ukrainada, Isroil-Falastin, Armaniston-Ozarbayjon, Pokiston-Hindiston, Janubiy va Shimoliy Koreya, Serbiya-Kosovo, Turkiya-Gretsiya, Isroil-Eron kabi mamlakatlarda azaldan mavjud bo'lgan mojarolar yangi tus olmoqda.

Ikkinchi, 2024-yilda dunyoning 70 ta mamlakatida prezidentlik yoki parlament saylovlari bo'lib o'tadi va ularda jahon aholisining yarmidan ko'pi ishtirok etib, o'z yetakchilarini saylab olishadi. Ushbu elektoral saylovlar natijalari nafaqat mazkur davlatlarga, balki jahon siyosati va xavfsizligiga ham muayyan ta'sir o'tkazishi va yangi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Uchinchi, Amerika-Xitoy munosabatlarining rivojlanish dinamikasi xalqaro xavfsizlik tizimi kelajagini belgilashi mumkin. Zero, Pekin va Vashington munosabatlarida hali hanuz keskinlik va ziddiyatlar mavjud.

To'rtinchi, mintaqalashuv tendensiyasi tobora kuchayib va kengayib bormoqda. BRIKS, SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa mintaqaviy tashkilotlarga a'zo davlatlar «Katta yettilik» mamlakatlariga muqobil bo'la oladigan, o'zining global boshqaruv tizimiga ega bo'lgan, iqtisodiy barqaror o'sishni uzluksiz

ta'minlayotgan va barqaror rivojlanayotgan davlatlardir. Ularning soni muttasil o'sib borayotganligi, hamkorlikda turli sohalarida erishayotgan yutuq va muvaffaqiyatlari ko'plab davlatlarda qiziqish uyg'otmoqda. O'z navbatida bu davlatlar ham



ular safiga kirish xohish-istaklarini bildirishmoqda.

Mazkur mintaqaviy tashkilot va birlashmalar faoliyatiga chuqurroq e'tibor qaratilsa, bugungi geosiyosiy manzara yanada oydinlashadi. Masalan, BRIKS mintaqaviy iqtisodiy birlashmasiga 2009-yilda Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy a'zo bo'lgan, 2011-yilda esa Janubiy Afrika Respublikasi qo'shilgan. 2023-yilda



BRIKSning Yoxanesburg shahrida bo'lib o'tgan sammitida yangi 5 ta davlat – Eron, Saudiya Arabistoni, Misr, Efiopiya va BAA qo'shildi. Birlashmaga a'zo bo'lish uchun yana 23 ta davlat ariza topshirgan.

BRIKS nafaqat iqtisodiy birlashma, balki o'ziga xos siyosiy brend

sifatida ham tanildi. Masalan, uning Taraqqiyot banki tomonidan a'zo mamlakatlar uchun o'z raqamli valyutasiga o'tishga hozirlik e'lon qilinishi xalqaro maydonda AQSHni asosiy moliyaviy-iqtisodiy manbaya bo'lgan dollarning milliy iqtisodlaridan mosuvo qilishi mumkinligi haqida bashorat qilinmoqda. Birlashmaning bunday qadamlari jahon geosiyosati va iqtisodiy munosabatlari o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Jahon siyosati va iqtisodiyotida tobora nufuzi ortib borayotgan SHHT 2001-yilda tuzilgan mintaqaviy

Yangi jahon tartiboti shakllanayotgan hozirgi davrda Turkiy davlatlar tashkiloti butun mintaqamiz xavfsizligi garovi bo'lishi lozimligi haqida fikrlar bildirilmoqda. Ushbu tashkilotga a'zo davlatlarning iqtisodiy va inson resurslari uning global tinchlik va xavfsizlik masalalarida jahonning asosiy geosiyosiy kuchlaridan biriga aylanishiga imkoniyat yaratadi. Zero, siyosiy o'zgarishlarning yangi bosqichida uzoq muddatli xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun ijtimoiy va tabiiy omillarni inobatga olish zarurligi,

viy xalqaro tashkilot bo'lib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston va Tojikiston uning asoschilari hisoblanadi. Bugungi kunda tashkilotga 10 ta davlat a'zo, uchta davlat kuzatuvchi maqomiga, 14 ta davlat tashkilot bilan muloqot qilish bo'yicha hamkor maqomiga ega. Bu esa tashkilotning xalqaro siyosatdagi o'rni va nufuzining ortib borayotganligi hamda hozirgi murakkab geosiyosiy vaziyatda mintaqamamlakatlari birlashuvi mustahkamlanayotganligidan dalolatdir.

SHHTning yaqinda Ostona shahrida bo'lib o'tgan «SHHT plyus»formatidagi uchrashuvda nutq so'zlagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Global siyosiy va iqtisodiy «parchalanishlar», urushlar va mojarolar xalqaro munosabatlar tizimi asosi va hal qiluvchi tamoyillari-ning yemirilishiga olib kelmoqda», deb ta'kidladi.

hamkorlar bilan raqobat emas, faqat birgalikda harakat qilish va kelajak avlod oldidagi mas'uliyatni his etgan holda, barqaror tinchlik va xavfsizlikka erishish mumkinligi isbotlanmoqda.

Xulosa o'rnida ta'kidlashimiz lozimki, jahonda kechayotgan murakkab hamda xavfli tahdid va tajovuzlar jarayonida faqatgina ezigulik, tinchlik, barqarorlik, hamkorlik va do'stlik yo'lini tanlagan mamlakatlarga birgalikda ushbu muammolarni hal etishlari mumkin. Davlatimiz rahbarining bu boradagi tashabbus va takliflari jahon hamjamiyati, BMT, shuningdek, boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar hamda davlatlar rahbarlari, siyosatchilar tomonidan iliq kutib olinmoqda, ma'qullanmoqda, bu esa ko'p vektorli O'zbekiston tashqi siyosatining naqadar pragmatik va ochiq ekanligining dalolatidir.

Shuhrat G'OYIBNAZAROV,
siyosiy fanlar doktori, professor,
iste'fodagi polkovnik.



JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

HAMISHA DOLZARB MASALA

Jinoyatning kelib chiqish sabablari va omillari turlicha. Bunga asosan ishsizlik, yengil daromad ortidan quvish, oilaviy kelishmovchiliklar, o'zaro qo'ydi-chiqdilar sabab bo'lmoqda. Oilaning tinchtotuv, farzandlarning baxtli bo'lishi hamda jamiyatda o'z o'rnini topishida ota-onalarning o'rne beqiyosdir.

Konstitutsiyamizning 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburligi qat'iy belgilab qo'yilgan. Ammo ayrim ota-onalar hanuz farzand tarbiyasiga o'qituvchi mas'ul deb o'ylab, bee'tibor bo'layotgani achinarli hol. Ular bolalarining



qiziqishlari, muammolariga, do'stlari kimligiga befarq bo'layotganini yana qanday izohlash mumkin?!



IIV huzuridagi JIED To'rtinchi mintaqaviy hududi 2-son jazoni ijro etish koloniyasidagi mahkumlar orasida ham hayot yo'llarida adashgan yoshlar bor. Ularni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga qaytarishga dolzarb masalalardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Shu maqsadda hamkor tashkilotlar bi-

lan birgalikda muntazam ravishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda. Jumladan, mahkumlar o'rtasida viloyat Adliya boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi hamda Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi bilan hamkorlikda «Zakovat» intellektual o'yini, Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi hamda oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda «Jaholatga qarshi ma'rifat» tanlovlari o'tkazish an'anaga aylangan. Psixologik o'quv mashg'ulotlari, viloyat Madaniyat boshqarmasi bilan yosh ijodkor mahkumlar ishtirokida o'tkazilayotgan «Iste'dod» tanlovlari va O'zbekiston musulmonlari idorasi viloyat vakillari bilan bo'lib o'tayotgan uchrashuvlar o'z samarasini bermoqda.

Mahkumlarga zamonaviy kasb-hunarlarni o'rgatish maqsadida «Hunarmand» uyushmasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi hamda koloniyada tashkil etilgan Kasb-hunarga o'qitish markazi bilan yaqindan hamkorlik qilinyapti. Natijada yosh mahkumlar o'zlarining qiziqishlari bo'yicha kasb-hunarlarni puxta egallashyapti. O'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlaganlar o'rta-maxsus kasb-hunar ta'limi diplomiga tenglashtirilgan sertifikatlarni qo'lga kiritishyapti. Ozodlikka chiqqach, bu yerda o'rgangan hunari ortidan o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yib, Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shayotganlar ham talaygina.

Aktam JAVLIYEV,
kapitan.

KASB FIDOYILARI

INSON O'ZIGA ISHONSA...

Mayor Jonibek Mardonov ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2014-yilda olis Zarafshon shahridagi 12-son jazoni ijro etish muassasasida boshlagan. Olti yil davomida mahkumlarni qayta tarbiyalash, ularga kasb-hunar o'rgatishga katta hissa qo'shdi. Uning ana shu davrda to'plagan tajriba va malakasi keyingi faoliyatida qo'l keldi. U ayni paytda Karmana tumani IIB Probatsiya guruhi katta inspektori lavozimida xizmat qilmoqda.

Tuman IIB Probatsiya guruhi nazorati ostidagi mahkumlarning 40 nafarini ayollar

tashkil etadi. Mayor Jonibek Mardonov hamda uning guruhdagi hamkasblari mahkumlarni ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga yo'naltirish bilan shug'ullanishadi. Shu yilda ularning 112 nafari korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikdagi mehnat yarmakalarida o'z ish o'rinlariga ega bo'ldi. Shuningdek, ularga moddiy-ijtimoiy hamda tibbiy yordam berish kabi ishlar tashkil etildi.

Bundan tashqari, mahkumlar o'rtasida sport musobaqalari va kitobxonlik tadbirlari uyushtirilyapti. Uning sa'y-harakatlari tufayli joriy yilda 98 nafar mahkum qilmishidan chin ko'ngildan pushaymonligi, jazoni o'tash davridagi namunalari axloqi, mehnatga ijobiy munosabati

tufayli muddatidan oldin jazonadan ozod etildi. Taassufki, xodimlarning qonuniy talabini bajarishdan bosh tortib, imkoniyatdan unumli foydalanmagan 31 nafarining jazosi og'irrog'iga almashtirildi.

– Har bir mahkumga xatolarini anglatish, qayta jinoyat sodir etishiga yo'l qo'ymasligi uchun halollik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash choralarini ko'ryapmiz. Biz ularni jazo o'tash davrida o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga harakat qilyapmiz, hayotda o'zlarining munosib o'rnini topishiga undayapmiz. Chunki inson o'ziga ishonsa, bu unga motivatsiya beradi, – deydi mayor J. Mardonov.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



Урок духовности и просвещения

ГЕОПОЛИТИЧЕСКАЯ КАРТИНА СОВРЕМЕННОГО МИРА

Геополитическая картина мира характеризуется крайней неустойчивостью. Глобальные политические «разломы» подрывают устои и ключевые принципы системы международных отношений. Противоречия и протекционизм порождают фрагментацию экономики, возводят разделительные линии, препятствующие эффективному взаимодействию стран. Возрастающую угрозу представляют экологические бедствия, дефицит водных ресурсов, кибератаки. В этих условиях как никогда важно сплочение стран на основе того, что общие интересы выше существующих противоречий.

Узбекистан выступает за справедливый миропорядок, основанный на принципах международного права при координирующей роли ООН. Руководство страны, проводя внешнеполитический курс, глубоко анализирует и учитывает проявляющиеся тенденции. При этом в любых обстоятельствах цель остается неизменной – обеспечение суверенитета республики.

Глава нашего государства Шавкат Мирзиёев в качестве внешнеполитического приоритета определил укрепление взаимовыгодных отношений со странами Центральной Азии, нашими соседями – Казахстаном, Кыргызстаном, Таджикистаном, Туркменистаном. Данный курс напрямую связан с формированием вокруг Узбекистана пояса мира и стабильности, поскольку именно безопасность в регионе – важнейшее условие устойчивого развития республики.

Благодаря совместным усилиям Узбекистану и соседним странам удалось решить многие проблемы, связанные с границами, транспортными коридорами. Укреплены промышленно-производственные связи, наращивается товарооборот. Центральная Азия становится точкой роста, где реализуются крупные проекты. Взаимная торговля выросла в два с половиной раза, а количество совместных предприятий увеличилось в пять раз. Совокупный ВВП стран региона увеличился за последние годы более чем на 25 процентов, а за последние 20 лет – более чем в семь раз. Регион становится коммуникационным мостом, соединяющим Восток и Запад, Север и Юг.

Региональная безопасность напрямую связана с тенденциями, наблюдаемыми в Афганистане. Здесь сложилась ситуация, требующая особых подходов. Глава нашего государства подчеркнул, что гуманитарная помощь афганскому народу, реализация инфраструктурных проектов, помогающих возрождению афганской экономики, не должны ослабевать: «Нам нужен мирный и стабильный Афганистан, который участвует в процессах регионального сотрудничества и открыт для взаимовыгодного партнерства со своими соседями и другими странами».

В нынешних геополитических условиях в числе важнейших направлений внешней политики страны – развитие стратегических отношений с кругом влиятельных государств мира. При этом особое значение приобретает углубление многостороннего партнерства с крупнейшими державами – США, Россией, Китаем, со странами Европы и Европейским Союзом, развитыми государствами Азиатско-Тихоокеанского региона, в частности, с Республикой Корея, Японией, где функционируют крупнейшие производители высоких технологий.

Общие исторические, культурные и духовные ценности объе-

народные организации и объединения. Наша страна активизировала участие в СНГ. Республика являет-



диняют Узбекистан и Ближний Восток. Расширилось сотрудничество с арабскими странами. Укрепляется взаимодействие в инвестиционной, энергетической, банковской сферах, в области развития возобновляемых источников энергии. Регулярно проводятся политические консультации, в том числе с Саудовской Аравией, Кувейтом, ОАЭ, Марокко, Иорданией, Египтом и др.

Открытая внешняя политика Узбекистана предусматривает различные форматы отношений с ведущими «игроками» в Центральной Азии.

В глобальных геополитических процессах все большую роль приобретают авторитетные между-

ся полноправным членом ШОС, в рамках которой реализованы важные задачи в сфере экономики, транспорта, культурно-гуманитарных отношений, противодействия преступности. Выступая на встрече широкого формата «ШОС плюс» на тему «Укрепление многостороннего диалога – стремление к устойчивому миру и развитию» в Астане (Казахстан), Шавкат Мирзиёев выдвинул инициативы последовательной «перезагрузки» торгово-экономического сотрудничества на пространстве ШОС. Президент подчеркнул, что пришло время выработать новую повестку дня, которая соответствовала бы огромному потенциалу ШОС в мировой политике и экономике. Он обратил внимание

на необходимость создания Универсального центра по противодействию угрозам и вызовам безопасности, принятия комплексных мер по упрощению торговых процедур и развитию электронной торговли, стимулированию технологической кооперации. Отмечена важность сопряжения совместных инициатив с Организацией экономического сотрудничества, Советом сотрудничества арабских государств Залива, ЕАЭС, АСЕАН и др.

За период с момента вступления в Организацию тюркских государств Узбекистаном выдвинуто более 30 инициатив по укреплению взаимодействия с государствами-участниками Организации. Очередные важные предложения Президент Узбекистана выдвинул на неформальном саммите ОТГ в Шуше (Азербайджан).

«Само время требует выработки общих подходов и вывода отношений наших стран на качественно новый уровень», – заявил лидер государства. Он обратил внимание на значимость возрождения Великого Шелкового пути в новых исторических условиях, увеличения объемов грузоперевозок по Транскаспийскому международному транспортному коридору. Указана целесообразность широкого привлечения созданного в Ташкенте Альянса логистических центров и грузоперевозчиков тюркских государств к формированию повестки дня и реализации приоритетных задач ОТГ в сфере транспорта. Для системного решения проблем в сфере изменения климата предложено создать Тюркский экологический совет со штаб-квартирой в Нукусе, принять концепцию «Тюркское движение к зеленой энергетике», усилить сотрудничество в создании современной «экономики знаний», подготовке кадров «четвертой промышленно-

сти». Выдвинута инициатива о создании в Узбекистане Научно-исследовательского центра развития человеческого капитала ОТГ.

Внежнополитический курс Узбекистана полностью отвечает национально-государственным интересам. Республика проводит взвешенную политику, основанную на доверии, взаимовыгодном сотрудничестве, укрепляет свой потенциал, развивает двусторонние и многосторонние связи, что востребовано в нынешних геополитических условиях.

Подготовил
Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.



PROFILAKTIK TADBIRLAR SAMARASI

Bandixon tumanida 22 ta mahalla bo'lib, ularda salkam 41 ming nafar xotin-qiz istiqomat qiladi. Ularning tinch-osoyshta yashashi, jinoyatchilik va huquqbuzarlik sodir etmasligi uchun tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, leytenant So'g'diyona Usmonova boshchiligida turli profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.

So'g'diyona Usmonova oila va xotin-qizlar bo'limi hamda mahalla fuqarolar yig'inlari bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Hududdagi oilaviy nizoda turgan ayollarning xonadonlariga borilib, ularning yashash sharoitlari, turmush tarzi «xonadonbay» tartibda o'rganilayotir. Natijada 69 nafar xotin-qiz tazyiq va zo'ravonlikka uchrangani aniqlanib, himoya orderlari berilishiga ko'maklashildi. Bundan tashqari, xonadonlardagi holatni o'rganish jarayonida 22 ta oila buzilish yoqasida turgani aniqlandi. Shu sabab suhbatlar o'tkazilib, er-xotinlar o'rtasida tushuntirish ishlari olib borildi. Albatta, bu sa'y-harakat ham ijobiy natija berdi: oilalarning barchasi yarashtirildi.

Oilaviy nizolarning ayrimlari ayollarning foydali mehnat bilan mashg'ul emasligi, ishsizlik sababli kelib chiqayotgani inobatga olinib, leytenant So'g'diyona Usmonovaning ko'magi bilan maxsus daftarlarda ro'yxatda turadigan xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi. Xuddi shuningdek, ijtimoiy profilaktika tadbirlari davomida aniqlangan 987 muammoli holatni ijobiy hal qilish choralarini ko'rildi. Bu tadbirlar esa tumanda jinoyatchilikning oldini olishda yordam berdi.

– Nizoli, muammoli oilalardan tashqari, qayta jinoyat sodir etishi mumkin bo'lgan xotin-qizlar bilan ham profilaktik suhbatlar olib boryapmiz, – deydi leytenant So'g'diyona Usmonova. – Ular doimiy nazoratga olinib, murabbiylar birlashtirilgan. Hayotiy tajribasi katta bo'lgan murabbiylarning ko'magi bilan ularning aksariyati



sog'lom turmush tarziga qaytmoqda.

Mazkur sa'y-harakatlar o'zining ijobiy natijasini berayotgani quvonarli hol. Misol uchun, o'tgan yilning dastlabki 6 oyi mobaynida 4 nafar ayol tomonidan jinoyat sodir etilgan

bo'lsa, joriy yilning shu davrida birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

«ROVOT»NING JONKUYAR INSPEKTORI

Bugungi kunda ichki ishlar organlarida ko'plab xotin-qizlar erkaklar bilan bir safda xizmat qilmoqda. Sohaning mashaqqatlarini bilim va matonati ila yengib kelayotgan xodimalardan biri Qarshi tumani IIB JXX HPB 5-sonli tayanch punkti profilaktika inspektori, katta leytenant Madina To'raqulovadir.

Bolaligidan ichki ishlar organi xodimi bo'lishni orzu qilgan Madina Qarshi davlat universitetini tamomlagach, bir muddat Qarshi tumanidagi 47-maktabda yoshlarga saboq berdi. Sohadagi xizmat faoliyatini esa 2021-yili Qarshi tumani IIBda, inspektor-psixolog lavozimida boshladi. Ustozi, tuman IIB JXX HPB boshlig'i, podpolkovnik Baxtiyor Jo'rayevdan kasb sirlarini o'rgandi. O'z ustida ishlab, kasbiy mahorati va bilimini oshirdi. Undagi qiziqish va intilish Beshkent shahri markazidagi «Rovot» mahallasida profilaktika inspektori lavozimida xizmat qilishiga zamin hozirladi.

Madina To'raqulova mahalla fuqarolar yig'ini mas'ullari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borgani tufayli fuqarolar bilan tezda til topishdi.

Jonkuyarligi, samimiyligi, birovlardan yordamini ayamagani uchun mahalla ahlining ishonchini, hurmatini qozondi. Masalan, hududdagi Muruvvat uyida yashovchi 1-guruh nogironi N.Umarova unga murojaat qilib, ID-karta olishda ko'mak so'radi. Ko'p o'tmay, profilaktika inspektori sa'y-harakati bilan unga shaxsini tasdiqlovchi hujjat olib berildi.

Naim va Salima (ismlar o'zgartirildi)ning o'rtasidan qora mushuk

o'tdi, shekilli, oilaning tinchi buzildi. O'zaro kelishmovchilik tufayli kelib chiqadigan janjallar odatiy tus oldi. Bundan xabar topgan katta leytenant Madina To'raqulova tezda ishga kirishdi. Mahalla fuqarolar yig'ini raisi Odil Turdiyev, xotin-qizlar faoli Nafisa Ro'ziyeva va mahalla faollarini, kayvonilarni ham jalb etib, er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklarning sabablarini o'rgandi. Bu harakatlar natijasiz qolmadi, er-xotin yarash-

tirildi. Ular hozir tinch va ahil hayot kechirmoqda.

Aytish joizki, bu yil mahallada yuritilayotgan «Temir daftar»dagi 32 nafar, «Ayollar daftari»dagi 29 nafar, «Yoshlar daftari»dagi 3 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi. Bunda mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi va yoshlar yetakchisi qatorida profilaktika inspektorining ham hisssasi bor.

– Mahallamiz «yashil» toifada bo'lib, 740 ta oilada 2300 nafardan ortiq aholi tinch-xotirjam umrguzaronlik qilmoqda, – deydi katta leytenant Madina To'raqulova. – Hududda turli davlat idoralari, ishlab chiqarish korxonalarini, ijtimoiy soha majmualari, Prezident maktabi, istirohat bog'i joylashgan. Bu zimmamdagi mas'uliyatni o'n karra oshiradi. Xizmat faoliyatimda esa tajribali hamkasblarim, ustozlarimning maslahatlari, yo'l-yo'riq va yordamlariga suyanaman.

Bir nafar farzandning onasi Madinaxonning turmush o'rtog'i U.Ro'ziyev Milliy gvardiya Qo'riqlash boshqarmasi G'uzor tuman bo'limi xodimi, unvoni katta leytenant. Har bir ishda uni qo'llab-quvvatlaydi.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.



HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

SUVDAN QURUQ CHIQQOQCHI EDI

Kattaqo'rg'onlik Abdulaziz (ismlar o'zgartirildi) zarurat bilan do'konga chiqib, ikki ko'cha narida yashovchi Baxtiyor aka bilan kutilmaganda gap talashib qolishadi. Abdulaziz gap orasida qiziqqonlik qilib, «Ey, menga qarang, yoshingizniyam hurmat qilib o'tirmayman, bir chekkaga chiqing, erkakchasiga gaplashamiz», deb yuboradi. Bu Baxtiyor akaning hamiyatiga tegadi-da, ikkovi yoqalashib ketishadi. Abdulaziz yosh, navqiron yigit emasmi, atrofdagilar hay-haylashib ularni ajratguncha, Baxtiyor akaga yetarlicha zarbalar berib ulguradi.

Mazkur holat yuzasidan Kattaqo'rg'on tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tomonidan Abdulazizga nisbatan dastlab jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Shu kuni gumonlanuvchi tuman IIB huzuridagi TB tergovchisi mayor Eldor Abdullayevga qamoq bilan bog'liq bo'lmagan ehtiyot chorasini tanlash evaziga 7 000 000 so'm miqdoridagi pullarni pora sifatida taklif qiladi.

Tergovchi harakatlari noqonuniyligini, pora berish-olish jinoyat ekanligini bir necha bor tushuntirishiga qaramasdan, u o'z fikridan qaytmaydi. Natijada IIV SHXBB Samarqand viloyati boshqarmasi hamda Kattaqo'rg'on tumani prokuraturasi xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbir chog'ida mayor E.Abdullayevning xizmat xonasida Abdulaziz va'da qilingan pullarni pora tariqasida bergan vaqtida dalilii ashyolar bilan qo'lga olinadi.

– Inson tabiatiga qiziqqonlik yot emas, – deydi mayor Eldor Abdul-



layev. – Biroq aksariyat hollarda fuqarolarning ko'zi sodir etgan huquqbuzarligiga qonuniy baho berilganidagina ochiladi. Xato qilib qo'yganini tushunishadi. Yana bir jihat, qonunni aylanib o'tishga harakat qiladiganlar ham bor. Buning oqibatida esa ikkinchi huquqbuzarlik yuzaga keladi. Bu huquq-tartibot sohasi mutaxassislarida qonun buzilishi holatlariga nisbatan murosasizlik kayfiyatini yanada kuchaytiradi.

Ha, halollikni shior qilgan xodimning gapida jon bor. Aynan Abdulaziz singarilar qilg'iliqni qilib qo'yib, yana suvdan quruq chiqmoqqa urinishadi. Bilishmaydiki, qonun hamma uchun barobar, har qanday huquqbuzarlikka qonuniy chora muqarrar.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

QOROVUL QO'SHINLARIDA

JAMO'A FAXRI

Qariyb chorak asrdan buyon harbiylik kasbini ardoqlab kelayotgan I darajali serjant Nodir Choriyev «Intilganga tole yor» degan shiorga hamisha amal qiladi. Shundan bo'lsa kerak, xizmatda doimo muvaffaqiyat qozonmoqda.

Yigitlik burchini IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli poytaxtimizdagi 7531-harbiy qismda o'tagan lavhamiz qahramoni har tomonlama chiniqdi. Uning o'z ustida izlanishlari esa keyingi harbiylik hayotida mustahkam poydevor bo'ldi. Shartnoma

asosida ilk xizmat faoliyatini ushbu harbiy qism 1-batalyoni qorovul boshlig'i lavozimida boshladi.

O'z vaqtida ustoz katta serjant Anvar Elmurodovdan bilmaganlarini qunt bilan o'rgandi. Sohaga oid kasbiy tajribasini boyitdi. Yetti yil

qorovul boshlig'i lavozimida faoliyat yuritgach, xizmatni Qarshi shahridagi 7533-harbiy qismda seksiya komandiri sifatida davom ettirdi.

Nodir Choriyev qo'l ostida xizmat qilayotgan shogirdlari, kichik serjantlar Yoqub Avazov, Abbas Temi-

rov va oddiy askar Firdavs Ortiqov bilan muntazam ravishda kasbiy, jangovar va jismoniy hamda ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar o'tadi. Ularning oilaviy sharoitlarini o'rganib, muammolarini bartaraf etishga o'z hissasini qo'shib kelayotir.

– Nodir Choriyev – jamoaning faxri. U har jihatdan hamkasblariga namuna bo'lib kelmoqda, – deydi harbiy qism mafkuraviy va tarbiyaviy ishlar bo'linmasi boshlig'i, mayor Abdurasul Abdinabiyev. – Jamoat ishlarida ham faol. Faoliyati davomida ko'p marotaba rag'batlantirilganligi uning xizmatiga berilgan munosib bahodir.

Nodir Choriyev turmush o'rtog'i Qunduz Umidova bilan farzandlari Fayozbek va Jamshidbeklarning tarbiyasida sobitqadam. Safdoshlari orasida mehnatsevarligi va bilimga chanqoqligi bilan hamda o'z ishining ustasi sifatida nom qozongan.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Suratda: I darajali serjant Nodir Choriyev (chapdan ikkinchi) shogirdlari bilan.



Как живешь, РОВД?

ВСЕГДА НАЧЕКУ

В Кургантепинском районе, расположенном на востоке Андижанской области, проживает около 200 тысяч человек. Мир и спокойствие граждан обеспечивают сотрудники районного отдела внутренних дел.

Стражи правопорядка днем и ночью всегда начеку, в их послужном списке множество раскрытых дел.

– К примеру, 25 мая текущего года проживающая в махалле Янги бустон 22-летняя Хулкаррой Т. ушла из дома и не вернулась, – рассказывает исполняющий обязанности командира 4-го межрайонного отряда патрульно-постовой службы Управления охраны общественного порядка УВД Андижанской области лейтенант Голиббек Бозоркулов. – По заявлению родственников, без вести пропавшую объявили в розыск. Каждому сотруднику отряда была вручена ориентировка с ее описанием и фотографией. Рядовой Элёр Хурмаатов обнаружил девушку в парке города Кургантепа. Пропавшая была возвращена в семью. Как оказалось, она поругалась с родителями и ушла жить к подруге.

Еще один пример из будней сотрудников РОВД. По оперативной информации стало известно, что житель махалли Юксалиш занимается выращиванием марихуаны. Для проверки информации по месту проживания подозреваемого был направлен автопатруль в составе рядовых Авазбека Махмудова и Исламбека Мухаммадкаримова. Стражи порядка обнаружили на приусадебном участке девять кустов марихуаны.

Личный состав 4-го межрайонного отряда в полной мере обеспечен средствами связи, автотранспортом, планшетами. Маршруты патрулирования пеших нарядов и автопатрулей отработаны до мелочей. В случае изменения криминальной обстановки силы и средства могут быть перенаправлены на «горячий» участок.

Инспектор профилактики старший лейтенант Машхурбек Жалилов, обслуживающий территорию махалли Тадбиркор, выпускник Андижанского

государственного университета. В органах внутренних дел служит с 2022 года. Его учителем и наставником был старший инспектор профилактики капитан Искандар Ганиев.

– В 2023 году и текущем году на участке не совершено ни одного преступления, – говорит старший

дежи Бобуржоном Нуриддиновым, активисткой по вопросам женщин Камилой Мирзаевой. Вместе совершаем обходы, ведем прием жалоб и предложений, стараемся решать проблемы, регулярно



лейтенант М. Жалилов. – Этот результат достигнут с активистами схода граждан – председателем Дилфузой Сотволдиевой, помощником хокима Уктамжоном Хакимовым, лидером моло-



проводим профилактическую работу среди молодежи.

На территории участка проживает больше трех тысяч человек, половина из них молодежь. Для того, чтобы молодые люди с пользой проводили свободное время, организовываются конкурсы «Заковат», «Юный книголюб», «Знатоки правоведения». Ведется целенаправленная работа по вовлечению молодежи в занятия физкультурой и спортом.

Фотимахон Мирзаахмедова более 10 лет проработала делопроизводителем канцелярии Кургантепинского РОВД. Окончила Андижанский государственный университет. В 2019 году ее назначили старшим инспектором по вопросам женщин.

– С начала года 117 женщинам, пострадавшим от домашнего насилия, выданы охранные ордера, – рассказывает капитан Ф. Мирзаахмедова. – К примеру, жительни-

ца махалли Жомий, Азизахон М., обратилась к нам за помощью. Она рассказала, что ее супруг пристрастился к спиртному, устраивает скандалы, поднимает руку на нее и несовершеннолетних детей. Вместе с территориальным инспектором профилактики мы изучили обстановку в этой семье. Женщине был выдан охранный ордер. С ее супругом проведена обстоятельная профилактическая беседа.

Начальник следственного отделения при Кургантепинском РОВД майор Бобуржон Икромов выпускник Академии МВД. Работал дознавателем, следователем, старшим следователем следственного отделения при Мархаматском РОВД, старшим следователем Следственного управления при УВД Андижанской области. На занимаемой должности с 2022 года.

– Недавно была пресечена деятельность преступной группы, состоящей из двух женщин и трех мужчин, которая занималась контрабандой и реализацией сильнодействующих психотропных препаратов. Глава преступной группы, находясь в городе Ош Кыргызской Республики, скупал в больших количествах медицинский препарат «Пребагалин», вызывающий состояние эйфории. Женщины вскрывали капсулы и пересыпали содержимое в пластиковые пакеты. Под видом сахарного песка переправляли через границу и доставляли в Ташкент. Там двое мужчин занимались распространением сильнодействующего препарата среди молодежи, – рассказывает майор Б. Икромов. – В отношении преступников возбуждено уголовное дело по ч. 1 ст. 246 и ст. 251 Уголовного кодекса. Проводятся следственные мероприятия.

– Недавно мы получили новый автомобиль, – говорит начальник изолятора временного содержания (ИВС) капитан Олимжон Рахмонов. – Компактное транспортное средство предназначено для перевозки подсудимых в суд.

Личный состав подразделения отлично справляется со служебными обязанностями. Тон в работе задают и являются примером для других рядовые Нодирбек Исмоилов, Рустамжон Ашуров, Рустамжон Мухаммаджонов, Олимжон Ходжиматов, Жамолдин Шокиров и Махаммаджон Суяркулов.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.



ЯҚИН ТАРИХ САҲИФАЛАРИДА

Орадан қирқ йил ўтган бўлса-да, Гдлян ва Иванов бошчилигидаги «қашқирлар гуруҳи»нинг турли идораларда ишловчи раҳбарларни ўзлари ўйлаб топган игво ва тўхматлар билан қамаб, уларга берган ноҳақ азоблари ҳали-ҳануз юракларни тирнайди...

Мазкур гуруҳ томонидан Ички ишлар вазирлиги тизимида хизмат қилган айрим раҳбарлар ҳам қамоққа олинган бўлиб, уларнинг аксарияти қўйилган айбловлар тасдиғини топмагани учун оқланган. Тўпланган ҳужжатлар, тўқилган битикномалар билан танишарканмиз, вужудимиз гоҳ

да ишлаб, собиқ иттифоқ ИИБ Олий мактабида таҳсил олди. 1974 йили эса мазкур вазирлик Академиясини аъло баҳоларга тамомлади. Шунинг айтиши жоизки, у ушбу таълим муассасасини аъло баҳоларга тамомлаган биринчи ўзбек зобити эди.

Бухоро ва Наманган вилоят ИИБда бошлиқ муовини бўлиб ишлаган Ориф Фозилов 1980 йили она юрти Фарғона вилояти ИИБга бошлиқ этиб тайинланди. Унинг раҳбарлик даврида ДАН, ИИБ поликлиникаси бинолари, болалар боғчалари қурилди. Бир қатор туманларда ИИБ бўлимлари бинолари фойдаланишга топширилди. Жиноятчиликнинг олдини олишга, ходимлар маданиятини оширишга алоҳида эътибор қаратилди. Жиноятларни фош этиш



лик, пора беришда воситачилик қилиш, хизмат вазифасини суиистеъмол қилиш каби айблар

терговчи унга хотини Тамарани қамоққа олиш тўғрисидаги сохта санкцияни кўрсатади.

Бундай разиллик ва адолатсизликка, номардлик ва пасткашликка чидай олмаган Ориф Фозилов ярим тунда кўзойнаги шишаси билан қўлидаги қон томирларини кесиб, жонига қасд қилади. Аммо камерадошларидан бири полда илондай судралиб оқаётган қонни кўриб қолиб, жонини сақлаб қолишади.

Адолатсизликка қарши исён кўтариб, очлик эълон қилади. Шундан сўнг иш судга чиқади. Суддан яна терговга қайтади, терговдан судга чиқаверади. Қўйилган айбловларнинг асоссизлиги очилавергач, терговчилардан бири унинг адвокатига, «Агар Фозилов оқланса, мен ўзимни отиб ташлайман», деб катта гапи-

ҚАШҚИРЛАР ТАЛВАСАСИ

ёхуд полковник Ориф Фозиловни айблаш учун тўқилган уйдирмалар ҳақида

таажжуб, гоҳ таассуф, гоҳида эса ўқинч ва алам ичида қолди.

Фарғона вилояти ИИБ бошлиғи лавозимида ишлаган полковник Ориф Фозилов нақ икки йил меҳмонини хуш кўрмас мезбонларнинг қаттиқ нону оби-ёвғонини ичиб келганлардан бири.

1985 йилнинг бешинчи декабрь куни ички ишлар органлари хизматидан бўшаб, касаба уюшмалари вилоят кенгашига қарашли фуқаро мудофааси бўлимида раҳбар бўлиб ишлаётган Ориф Фозиловнинг хизмат хонасига уч-тўрт бегона киши бостириб кириб, ҳе йўқ, бе йўқ, қўлига кишан уриб, олиб кетишган. Сабаби сўралганда, «Тегишли жойда гаплашамиз», дейишган.

Тегишли жой – Тошкентдаги ДХҚ биносида унга тегишли бўлмаган гаплар, саволлар кўп бўлди. Бу ишидан олдинги ишида қилган, ҳаётида ва ҳаёлида бўлмаган тамагирликлар ҳақида айбловлар қўйилди. Бу айбловларнинг тўқима, сохта, тўхмат эканлигини исботлаш учун умрининг 727 кунини қамоқда ўтказди.

Ориф Фозилов Фарғона вилояти Бағдод туманидаги Серово номли қишлоқда туғилган. Қишлоқ болалари сингари беғубор орзулар оғушида улғайган. Отаси ва бошқалардан армия, ички ишлар органлари ҳақидаги ҳикояларни эшитиб шу касбга ҳаваси ортган. Ҳавас орзуга айланиб, Ленинграддаги ҳарбий-сиёсий билим юртига ўқишга кирган.

Билим юртини тугатгач, Фарғонадаги қамоқхонада таржимонлик қилди. Сўнгра ўз усти-

даражаси ошди. Бир қатор оғир жиноятлар очилди. Масалан, ўша йиллари Фарғона тумани ҳудудида қароқчилик билан шуғулланган жиноятчилар гуруҳи фош этилди. Аммо 1983 йилга келиб, тўсатдан унинг устидан имзосиз хатлар кўпайди. Имзосиз хатларнинг жуда катта қисми тасдиқланмади.

Бироқ махсус топшириқ билан келган комиссия ўта синчковлик билан ишлади ва ниҳоят улар 1935 йили, Ориф туғилганидан сўнг бир йил ўтиб, яъни 1936 йили отаси бир йилга қамалгани ҳақидаги маълумотни топишади. Ва бу ҳол унинг таржимаи ҳолида акс этмаганини аниқлашади. Худди ашаддий жиноятчининг яширин жиноятини фош этгандек, «Мана-а-а-а жиноятчи! Демак, у отасининг қамалганлигини қасддан яширган! Факт тасдиқланди!» дея дарҳол Тошкентга хабар қилишди. Мазкур факт асосида 28 йил ҳалол хизмат қилган тажрибали ходим, полковник, «касаллиги туфайли» баҳонаси билан ишдан олинди. Тўғрироғи, хизматдан кетишга ихтиёрий мажбурланди.

Афсуски, бу ҳали унинг бошига тушган кўргуликларнинг дебочаси экан. ДХҚ турмасида ўн кунгача уни сўроқ қилишмайди. Айбсиз айбдор қатъий норозилик билдирганидан сўнг сўроққа чақиришди. Сўроқни Республика прокуратураси тергов бўлими бошлиғи Лаптев олиб боради. У ҳам десантчилар таркибида «Ўзбекистонни тозалаш» учун Воронеждан келган кадрлардан бири эди.

О. Фозиловга ички ишлар органларида масъул лавозимларда ишлаб юрган пайтлари порахўр-

қўйилган. Жумладан, гўёки у 1980 йили Кисловодск шаҳрида дам олаётганда худди шу пайтда шу ерда дам олаётган республика ички ишлар вазири Қ. Эргашевга пора олишда воситачилик қилган эмиш. Яъни, Наманган вилояти ИИБ бошлиғи Ё.Муҳаммаджонов Қ. Эргашевга пора бермоқчи бўлган-у, аммо эвини қилолмаган. Шунда у Фозиловга мурожаат қилиб «Шу олти минг сўмни Эргашевга менинг номимдан беринг, шундан минг сўми хизмат ҳақингиз» деган эмиш.

Аммо суд жараёнида генерал-лейтенант Қ. Эргашевнинг 11 апрель куни дам олишдан Тошкентга қайтгани, О. Фозилов эса оиласи билан Кисловодскка 15 апрелда боргани маълум бўлиб, бу айблов тасдиғини топмайди. Наманган вилояти ИИБ бошлиғи ўринбосари лавозимида ишлаган пайтда «Урал» мотоциклни бепул олган, деган айблов ҳам Ориф Фозилов бу мотоциклни бағдодлик қариндошига унинг пулига олиб бергани тегишли далиллар билан аниқлангани боис пуч бўлиб чиқади.

О. Фозилов айбларини тан олавермагач, унга нисбатан турли қийноқ усулларини қўллаш бошланади. Турли найранглар ўйлаб топишади. Кунлардан бир куни соғлиғи яхши бўлса-да, турма касалхонасига ётқизишади. Шубҳали муолажалар қилишади. У ётган алоҳида палата-камерага бир рецивидист чол ҳамда банкда талончилик қилган безори йигит ҳам қўйилади. Бир куни камерадоши собиқ армия капитани билан муштлашишга ҳам тўғри келади. Бу усуллар ҳам иш бермагач,

риб ҳам қўяди. Бу уларнинг энди росмана талвасага тушганидан далолат эди.

1987 йил декабрида Ўзбекистон Жиноят-процессуал кодексининг 175-моддаси 2-қисми билан жиноят иши ҳаракатдан тўхтатилади. Ниҳоят ҳақ қарор топиб, О. Фозилов оқланиб, ўз юртига, оиласи бағрига қайтади.

Ҳақиқат эгилди, букилди, аммо синмади. Икки йиллик изтироб, азоб ва ситамлар гирдобидан омон чиққан О. Фозилов оқлангач, атайин ўша терговчининг олдига боради. Унинг бургутдек қарашларидан кўзини олиб қочган терговчига «Жўжани кузда санайдилар, хўжани лафзида санайдилар», дейди.

Бироқ у Бутурлин, Гайданов, Лаптев сингари собиқ раҳбарлар айби билан икки йил гуноҳсиз, ноқонуний равишда қамоқда ўтирганига эмас, балки уларнинг жазосиз қолганига кўпроқ ачинди. Юзлаб кишилар бошига мислсиз кулфатлар солган бундай разил кимсаларнинг яна баланд лавозимларда ишлаб юрганидан ич-ичидан куюнди. Шу куюниш, руҳан эзилиш, адолатсизликлар ва адолатсиз ҳуқуқ посбонларига бўлган нафрат уни тузалмас дард – саратон касалига мубтало қилди.

Гарчанд, Ўзбекистон мустақилликка эришгандан сўнг атиги 40 кун яшаган бўлса-да, «Қанийди, агар олдинроқ мустақил бўлганимизда, бу аянчли кўргуликлар бошимизга тушмасмиди», деганича Яратгандан мустақиллигимиз боқий ва абадий бўлишини тилаб дуолар қилди.

Шухрат РЎЗИЕВ,
ўз мухбиримиз.



XIZMATLARDA

TABIAT XATONI KECHIRMAYDI

Viloyatda aholini sel, toshqin, ko'chki kabi tabiiy ofatlardan asrash borasida davlatimiz rahbarining 2022-yil 18-noyabrdagi «Aholini va hududlarni xavfli gidrometeorologik hodisalar hamda geologik jarayonlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choratadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida joylarda ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan manfaatdor tashkilotlar bilan tashkiliy-amaliy ishlar qilinmoqda.



Viloyat IIB Harbiy safarbarlik bo'linmasi hamda Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, viloyat ob-havoni kuza-tish xizmati, tuman hokimliklari bilan hamkorlikda tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Sel, suv toshqini, qor va yer ko'chkisi kabi hodisalarni salbiy oqibatlarisiz o'tkazish, tadbirlarga jalb qilingan kuch va vositalar harakatini mavofiqlashtirish, o'z vaqtida joylardan ob-havo haqida ma'lumot olib,

tahlil qilish maqsadida viloyat IIB hamda shahar-tuman IIBda tezkor shtablar faoliyati ishlab turibdi. Joylarda ishchi guruh vakillari va ichki ishlar organlari xodimlarining kecha-kunduz navbatchiligi tashkil etilgan bo'lib, favqulodda vaziyatlarda harakat qilish uchun ularga zarur ko'rsatmalar berib borilyapti. Kezi kelganda, xavfli hududlarda yashaydigan aholini ogohlantirish va vaqtinchalik xavfsiz

joylarga ko'chirish tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Vohadagi tog'li mintaqalar hisoblangan Kitob, Shahrisabz, Qamashi, Yakkabog', Chiroqchi va Dehqonobod tumanlarida tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lish ehtimoli bor hududlar talay. Mazkur tumanlarda ishchi guruh a'zolari uzluksiz tabiiy ofatlarning yuzaga kelish belgilari, sabab va oqibatlari xususida muntazam targ'ibot-tashviqot ishlari olib borishyapti.

Ta'kidlash o'rinliki, ayrim xavfli hududlarda doimiy yashovchi aholi ko'pincha xotirjamlikka berilib, vaziyatning keskinligini tushunmaydi yoki bunga bee'tibor qaraydi. Vaholanki, bu mudhish oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki tabiat xatoni, loqaydlikni kechirmaydi. Buni har bir fuqaro to'g'ri anglashi lozim.

Asliddin RAYHONOV,
Qashqadaryo viloyati IIB HSB
boshlig'i, mayor.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

YUK KO'TARGAN YUZAGA CHIQAADI

... Kechki soat taxminan 20:00 lar. Qibray tumani «Do'rmon» mahallasi hududida xizmat faoliyatini olib borayotgan PPX otryadi inspektori, safdor Sanjar Bahodirovning e'tiborini atrofga olazarak qarab kelayotgan kimsa o'ziga tortdi. Uni to'xtatib, shaxsiga aniqlik kiritganida, ushbu fuqaro jinoyat sodir etgani uchun qidiruvda bo'lgan Q.M. ekani ayonlashdi. U tuman IIBga topshirilib, qonun oldida javob beradigan bo'ldi.



Oilada uch farzandning o'rtanchasi bo'lgan Sanjar bolaligidan ichki ishlar organi xodimi bo'lish orzusida o'qib izlandi, shu bilan birga, sportning yengil atletika turi bilan muntazam shug'ullandi. Maktabni a'lo baholarga tamomlab, IIV 2-sonli Toshkent akademik litseyiga o'qishga kirganida esa, undan baxtli inson yo'q edi. Bu yerda ham sohaga oid bilim va ko'nikmalarni qunt bilan o'rgandi. Ta'lim muassasasini bitirgach, ichki ishlar organlari tizimiga xizmatga kirib, oliy o'quv yur-

tida o'qishni sirtidan davom ettirdi.

Toshkent viloyati IIBB 1-mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi PPX otryadi inspektori lavozimida ilk xizmat faoliyatini boshlagan yosh xodim o'tgan davr mobaynida ustozi – mayor Ilhom Hamidovning nasihatlariga amal qilib, kasb sirlarini mukammal egalladi. Zimmasidagi vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishga intildi. Turli ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalarida, jamoat ishlarida faol qatnashdi.

– «Yuk ko'targan yuzaga

chiqadi» degan naql rost ekan, – deydi lavhamiz qahramoni. – Chunki osoyishtalik posboni bo'lishga qat'iyat bilan intilgandim, orzuim amalga oshdi. Bundan keyin ham maqsadlarim ro'yobi yo'lida sobitqadam bo'laman.

Safdor Sanjar Bahodirov joriy yilda jamoat joylarida mast holda yurgan 20 nafar shaxsiga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirdi. Bundan tashqari, 17 nafar kishi o'tkir tig'li jism olib yurganini aniqlashga muvaffaq bo'ldi.

– Faoliyatida ijobiy natijalarga erishib kelayotgan safdor Sanjar Bahodirovning xizmatlari rahbariyat tomonidan ijobiy baholab kelinmoqda, – deydi guruh komandiri, katta serjant Murat Bimurzayev. – U yuqori maqsadlari sari dadil odimlamoqda.

Sanjar Bahodirov xizmatdan bo'sh paytida o'zi sevgan adib O'tkir Hoshimov asarlarini mutolaa qilib, ma'naviy oziqa oladi. Shu bilan birga, sayroqi qushlarga ham mehri bo'lakcha. Ularni parvarish qilib, xizmatdan charchab kelganida ohanrabodek ovozidan zavq olib, hordiq chiqaradi.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



TO'MARIS IZDOSHLARI BAHSLASHDI

Surxondaryo viloyati ichki ishlar organlarida xizmat olib borayotgan xodimlar o'rtasida «To'maris izdoshlari» musobaqasi bo'lib o'tdi.

Qizg'in bahslarga boy o'tgan musobaqada xodimlar 100, 200, 400 va 800 metr masofalarga estafeta yugurish, amaliy o'q otish mashg'ulotlarida sinovdan o'tishdi. Yana shartli jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va ularni jang maydonidan olib chiqish jarayonida qanday harakatlanish kerakligini amalda ko'rsatib berishdi.

Barcha shartlarni muvaffaqiyatli bajargan ishtirokchilar g'olib deb topilib, ularga musobaqaning respublika bosqichida qatnashish uchun yo'llanma berildi.

O'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



■ Бухарская область

Инспектор профилактики ОПП СОБ Каракульского РОВД старший лейтенант Миржалол Ёмгиров обрел уважение среди жителей махалли, в которой несет службу. Подобное отношение людей он заслужил благодаря добросовестному выполнению обязанностей по обеспечению спокойствия и общественной безопасности.

Старший лейтенант Миржалол Ёмгиров в данной должности с 2020 года. Сначала за ним была закреплена махалля Дехконобод. Молодой сотрудник, работая во взаимодействии с общественностью, опираясь на советы старших коллег, наставника – капитана Латипа Юсупова, превратил ее в территорию, свободную от преступности.



С февраля 2023 года М. Ёмгиров несет службу в махалле Пахтакор. Здесь действуют более 50 объектов торговли, бытового обслуживания, расположен стадион.

Когда инспектор заступал на службу, в махалле были зафиксированы три кражи, много иных правонарушений. Нужно было выправлять ситуацию. Он наладил тесное сотрудничество

с активом махалли, в центр внимания поставив профилактические мероприятия. Благодаря такому подходу за минувшее время текущего года не допущено совершения ни одного преступления, существенно снижено количество правонарушений.

Совместными усилиями махаллинской семерки изучили

психологическую обстановку в конфликтных семьях, провели работу с гражданами, склонными к совершению противоправных действий. Результаты деятельности проявились в том, что 35 человек из этих списков были исключены.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.

■ Ферганская область

РАБОТА ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ

Обеспечение безопасности на дорогах, профилактика правонарушений, работа с недисциплинированными водителями и многое другое входит в сферу компетенции инспекторов ДПС.

В Ферганской области 1062 махалли региона поделены на 158 квадратов, за каждым закреплён свой инспектор.

Старший инспектор 3-й группы 1-го отряда ДПС 1-ой региональной территории УБДД СОБ областного УВД старший сержант Рустам Эргашев несет ответственность за квадрат № 70, в который входит махаллинский сход граждан «Кизиларик» Куштепинского района. Первым делом он провел на вверенном участ-



ке ревизию состояния улиц, определил наиболее опасные в дорожном отношении места. Затем совместно с махаллинской семеркой наладил проведение профилактических мероприятий с населением.

В раннем предупреждении дорожно-транспортных происшествий, обеспечении безопасности движения большое значение имеет качество дорожной инфраструктуры. Исходя из этого, по инициативе старшего сержанта Р. Эргашева возле образовательных учреждений установлено

6 искусственных ограничителей скорости, 26 дорожных знаков, обновлены 20 знаков, а также дорожная разметка. Установлено освещение вдоль 500 м участка наиболее людной трассы.

На постоянной основе ведется профилактическая работа с водителями транспортных средств, оказывающих услуги по перевозке пассажиров. Результаты подобного подхода не замедлили сказаться. За минувший период года в зоне ответственности не произошло ни одного ДТП.

В целях обеспечения исполнения Указа Президента страны «О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в «Год поддержки молодежи и бизнеса» от 21 февраля 2024 года в системе Министерства внутренних дел в мае-июне проводились духовно-просветительские, патриотические и спортивные мероприятия под девизом «Объединимся ради безопасной жизни!».

Старший сержант Рустам Эргашев и махаллинская семерка приняли участие в республиканском финале данного конкурса и заняли первое место в номинации «Образцовый махаллабай-квадрат».

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корр.



АЖИНИЁЗ ТАВАЛЛУДИНИНГ 200 ЙИЛЛИГИ ОЛДИДАН

Атоқли қорақалпоқ шоири ва мутафаккири Ажиниёз Қўсибой ўғли ўзининг бетакроп ва сермазмун ижоди билан халқимиз маданияти ва адабиётини ривожлантириш, ёш авлодни ватанпарварлик ва эзгу ғоялар руҳида тарбиялаш, ўзбек ва қорақалпоқ халқлари ўртасидаги азалий дўстлик ва оғизбирчиликни мустаҳкамлашга муносиб ҳисса қўшган улкан ижодкордир. Ҳассос шоирнинг шеър ва дostonларида акс этган гуманистик фалсафий қарашлар эл-юртимиз қалбидан чуқур жой эгаллаган.

ЭЛЛАРИМ БОРДИР

Сўрасанг элимни, Қожбан*, бизлардан,
Қалпоғи қозондай элларим бордир.
Хато чиқса, кечиринглар сўзлардан,
Хитой, қўнғирот отли элларим бордир.

Яйловим кенг, Урганч, шимоли – денгиз,
Яғрини қопқоқдай моллари семиз,
Рухсатсиз бирон-бир ерга босмас из,
Бириккан қўнғирот элларим бордир.

Не изласанг, топилади кераги,
Кўлида бор қашқалдоғи, ўрдаги,
Қувлари, ғозларин бутун юраги,
Жонворларга макон кўлларим бордир.

Ёлғон сўзни ишонтириб айтмаган,
Тўғри йўлдан бош кетса ҳам қайтмаган,
Номаҳрамни сира йўлдош тутмаган,
Номи қорақалпоқ элларим бордир.

Сўйлаганда бол айлайди сўзингни,
Кўрганнингда лол айлайди ўзингни,
Навбахори тўйдирди кўзингни,
Лайли, Зулайҳодай қизлари бордир.

Отга минган очамайли-қиётда,
Қўлдовли-мийтану бор қўнғиротда,
Хитой, қипчок, кенагасу манғитда
От кўтармас белли беклари бордир.

Гудари белбоғи тиззага тушган,
Бўйи оқ теракни оралаб ўсган,
Фаним кўрса қайнаб, дарёдай тошган
Кўнғиротнинг орли полвони бордир.

Ёдга тушса, кўнглим тоғ каби ўсган,
Кўзим кўрмагунча кўкайим кесган,
Йилда мева тугиб, уч бора пишган
Оти сугилмақдай емишим бордир.

Сарҳовуз бўйида сояли терак,
Тилни тарс ёргувчи полизу палак,
Қирларда қизариб пишади гурвак,
Қовундай мазали таомим бордир.

Мол эгасин топар, сўз топса вафо,
Гиёҳида шифо, кушида сафо,
Денгиз этагида ҳаво мусаффо,
Буларнинг барчаси элимда бордир.

Жилва айлаб ҳар не борин соз этган,
Йигитларнинг кўнглин баҳор-ёз этган,
Қошин кериб, ишва билан ноз этган,
Боғларнинг ичинда қизлари бордир.

Бу ерда юрибман, юрагим ўртар,
Эл-юртни кўрмаган жабрини тортар,
Юрагимда ғаму ҳасратим ортар,
Айтсам адо бўлмас дардларим бордир.

Насиб айлаб сизнинг элларга келган,
Ким яхши, ким ёмон фарқини билган,
Ҳар не борин сизга баён айлаган
Қалпоқнинг камина Зевари бордир.

* Қожбан – шахс номи.

Қорақалпоқ тилидан
Рустам МУСУРМОН таржимаси.

YOZGI TA'TIL

XORAZM VILOYATI

Xonqa tumanidagi «Sog'lom avlod» oromgohi shu kunlarda bolalarning sevimli maskanlaridan biriga aylangan. Turli mevali va manzarali daraxtlar qo'ynida joylashgan oromgohda bu yil uch bosqichda jami 400 nafarga yaqin o'g'il-qizlarning hordiq chiqarishi rejalashtirilgan. Ayni paytda bu yerda tumanning turli hududlaridan kelgan 126 nafar bola yozgi ta'tilni maroqli o'tkazmoqda.



– Oromgohda bolalar uchun barcha sharoitlar yaratilgan, – deydi oromgoh boshlig'i Zebo Sobirova. – Ma'rifat xonasi, kutubxona, oshxona, dam olish va davolanish xonalari zarur jihozlar, uskunalar bilan ta'minlangan. Futbol, voleybol, basketbol, stol tennis, shaxmat, shashka, rassomchilik, tikuvchilik, to'quvchilik kabi to'garaklar allaqachon bolalarning sevimli mashg'ulotiga aylangan.

«Sog'lom avlod»da o'tkazilayotgan «Tabiat – umumiy uyimiz», «Kim bo'lsam ekan?», «Biz buyuk yurt farzandlarimiz» kabi ko'plab tadbirlarda yoshlar katta qiziqish bilan ishtirok etmoqda. Ayniqsa, «O'zingni namoyon et!», «Bilimdonlar bahsi» intellektual o'yinlarida bolalar o'z bilim va iqtidorini



namoyon qilishyapti. Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari yoshlarni jamiyatimizga yot bo'lgan turli illatlardan, g'oyaviy tahdidlardan himoya qilish, ularning jinoyat ko'chasiga kirib qolishining oldini olish maqsadida ko'plab targ'ibot tadbirlari o'tkazishmoqda.

– Yoz mavsumi davomida

bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida tuman hududida 2 ta oromgoh faoliyat ko'rsatyapti, – deydi tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Nasiba Ortiqova. – Bu oromgohlarda butun yoz davomida ming nafarga yaqin o'g'il-qizlar hordiq chiqarishi rejalashtirilgan. Shunga ko'ra, oromgohlarda targ'ibot tadbirlari, uchrashuvlar, davra suhbatlari, savol-javob kechalari o'tkazilyapti. Bolalarning yo'l harakati hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga oid bilimni sinovdan o'tkazish va mustahkamlash maqsadida «Zukko bolajon» tadbiri bo'lib o'tmoqda. Bunday tadbirlar

yoshlarning bilim saviyasini hamda dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xullas, bu so'lim maskanda o'tkazilayotgan har bir tadbir «Sog'lom avlod» bolalarida katta taassurotlar qoldirmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

NAMANGAN VILOYATI



Kosonsoy tumanidagi «Sohil» bolalar dam olish oromgohida bolajonlar uchun qiziqarli uchrashuv o'tkazildi. Namangan viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi kinolog xodimlari tomonidan dam oluvchilarga kinolog itlar va ularning imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar berildi. Kinolog itlarning ji-

noyatni ochishda qay tartibda ishtirok etishini ko'rsatib beruvchi ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

Bu kabi tadbirlar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tabiatga, jonivorlarga mehri bo'lib ulg'ayishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z muxbirimiz.



MULOHAZA

FAROSAT
BOZORDA SOTILMAYDI

Kun tushdan og'ib, quyosh qizdirishda yaxshigina avjiga chiqib ulgurgan palla. Yo'l yoqasidagi shoxlari siyrak daraxtlarning soyasi ham jaziramada kimlarningdir joniga ora kiriyapti. Plastik kartamdagi pullarni naqdlashtirish uchun shaffof oynali, qator bankomatlar joylashtirilgan maxsus xona tomon yurdim.

Ichkariga kirishim bilan yuzimga muzdek yoqimli havo urildi, o'zimda tetiklik his qildim. Demak, konditsioner ishlayapti, biroq nega eshiklar lang ochiq. Tashqari issiq, «odam erib ketay deyapti», deya ichimda kimlarningdir koyigan ko'yi eshikni yopdim.

Shu o'rinda yana dilni xira qiladigan holatni joyida ayta qolay, bir qancha cheklar oyoq ostida sochilib yotardi. Nahotki ularni ko'rsatilgan joyga tashlashning iloji yo'q? Aytgancha, shundoq yonginamda bir yigit qaysidir amaliyotni bajarishni uddalay olmagach, «Tomi ketgan bu bankomatning», deya g'o'ldirab, eshik tutqichini yulib olgudek zarda bilan yopib, chiqib ketdi.

Bugun zamona zaylimi, taraqqiyot taqozosimi, har birimiz hayot tarzimizda texnikaning qator qulayliklariga o'rganib ulgurdik. Va bu bizga xush yoqadi. Davlat tomonidan bu imkoniyatlar yanada kengaytirilishi tarafdorimiz. Ammo yuqoridagi holatlardan keyin qator savollar tug'iladi. Biz bor qulayliklar va imkoniyatlarni qadrlayapmizmi? Jamoat joyida oddiy tartib-qoidalariga amal qilyapmizmi? Bu ko'pchilikka kerak, u xalq mulki degan tushunchani qanchalik anglab yetyapmiz? Afsuski, oramizda bu savollarga javob berishni o'ylab ham ko'rmaydigan, befarq kimsalar ham bor. Aks holda, jamoat joylarida yuqorida tilga olingan holatlarga duch kelmagan bo'lardik.

Endi masalaning asosiy mohiyati – bu e'tiborsizliklarning yuzaga kelish sabablari va uning oqibatlari haqida mulohaza qilsak. Birinchi navbatda, tarbiya, fahm-farosat masalasi yuzaga qalqib chiqadi, albatta. Chunki kundalik turmushda jamoat joylarida oddiy tartib-qoidalariga ko'z yumish tarbiyasizlik, befarosatlikdan darak emasmi? Oddiy misol, uyda konditsioner yoqsak, darhol eshik, derazani yopib qo'yamiz. Umuman, ushbu buyum buzilib qolmasligi uchun foydalanish qoidalariga so'zsiz amal qilamiz. Ora-sira «Konditsioner ishlayapti, tashqariga chiqqanda tezroq harakat qilinglar», deya bolalarni tergap ham turamiz. O'zaro suhbatlarda «Puling kuygan narsani asraysan-a, asraysan», degan gap-so'zlar borligi ham ayni haqiqat.

Aytgancha, borini qadrlamaymiz-da, yanada yaxshi bo'lishini xohlaymiz. Xuddi-ki, yuqoridagi bankomatdan foydalana olmagach, eshik tutqichini yulib olgudek zarda qilgan yigit singari. Yoki chiqindi qutisi bo'la turib, axlatni qo'ya turaylik, oddiy bir parcha chekni belgilangan joyga tashlashga erinadiganlar bor oramizda.

Xullas, bularning bari vijdon amri bilan yo'l-yo'lakay ko'ngildan kechgan o'ylar...

Pulimni naqdlashtirib, bozor-o'charga chog'lanarkanman, tarbiyani, farosatni qo'l bilan tutib, yo bo'lmasa bozordan sotib olib bo'lmasligiga, ammo tarbiyasizlik, farosatsizlik shundoq ko'zga ko'rinib turishiga yana bir bor amin bo'ldim. Katta bozor qarshisida sotib olishning imkoni bo'lmagan narsalar borligi haqida o'yladim.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

MUTAXASSIS MINBARI

Internet tarmog'idagi axborot oqimi kichik yoshdagi bolalarni ham o'z domiga tortib bormoqda. Aqlini endi taniyotgan ayrim bolakaylarning qo'liga telefon bermasangiz, xarxasha qiladi. Telefonga o'rgangan bolaning esa ahvoli ma'lum, na gap kor qiladi, na tartibga chaqirishingiz. Ular injiq, qaysar, aytganini qildiradigan bo'lib o'sishmoqda. Ko'cha-ko'yda, yo'nalishdagi taksilarda, ishda, majlislarda, hatto yurib ketayotib ham telefondan bosh ko'tarmayapmiz. Hatto uyqusi hisobiga telefon titkilaydiganlar ham bor.

BEPARVO BO'LISHGA
HAQQIMIZ YO'Q

Bu nafaqat axborot tahdidi, balki sog'liq uchun ham koni zarar. Ehtimol, jamoat joylarida, transport vositalarida uyali aloqa vositalaridan foydalanishga taqiq qo'yish kerakdir. Tasavvur qiling, avtobusda hammaning bir paytda internetdan foydalanishi kuchli nurlanishni keltirib chiqaradi. Odamlar axborot xavfini tushunishlari kerak. Internet maydonida tarqalayotgan axborotlar oqimini saralash, asossiz xabarlar tarqatuvchi dasturlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishimiz shart. Chunki yoshlarimizni axborot tahdidlaridan asrash o'z o'rnida davlatimiz xavfsizligi, xalqimiz tinchligi, ularning salomatligini asrash demakdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda foydali deya tarqatilayotgan turli botlar, axborotlarni boshqalarga jo'natish asnosida ularga «viruslar» jo'natib, ko'plab ma'lumotlarni yo'q qilish yoki o'g'irlash mumkin. Bu esa shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanib, kiberjinoyatlarni sodir etishga yo'l ochadi. Biror-bir kompaniya tarmog'iga virus jo'natish esa o'sha kompaniyani tanazzulga uchratishni ko'zda tutadi.

Mamlakatimizda axborot xavfsizligi tizimi shakllangan bo'lishiga qaramasdan, hali-hanuz bu sohadagi xatarlar arimayapti. Shu o'rinda internet orqali amalga oshirilayotgan jinoyatlar haqida ham to'xtalib o'tmog'imiz lozim.

Kompyuter jinoyat paytida maqsadli yo'naltirilgan qurol vazifasini bajarib beradi. Kiberjinoyat kimningdir xavfsizligi va moliyaviy ahvoriga zarar yetkazish maqsadida sodir etiladi. Oddiy til bilan aytganda, axborot xavfsizligini bilmaydigan va ishonuvchan insonlar bu jinoyatning qurboni bo'lmoqdalar. Bolalar esa reklamalar ta'sirida o'zlari bilib-bilmay qimor o'yinlariga kirib qolishmoqda. Shunday ekan, hech birimizning beparvo bo'lishga haqqimiz yo'q. Xatarlar ko'z o'ngimizda yaqinlarimiz, yoshlar va bolalarni o'z domiga tortib bormoqda. Bunga yo'l qo'y-maslik uchun axborot xavfsizligi borasidagi bilimlarni chuqur o'rganishimiz lozim.

Xurshidbek ISKANDAROV,
Yangi Namangan tumani IIB
xodimi, katta leytenant.



AYOL JINOYATGA QO'L URSA...

Asli Farg'ona viloyati Bog'dod tumanida yashovchi Gavhar (ismlar o'zgartirildi) ishlash maqsadida poytaxtga keladi. So'rab-surishtirib, Yashnobod tumanida joylashgan oshxonalarining biriga ofitsiantka bo'lib ishga kiradi. Bu yerda oshpazlik va somsapazlik qiluvchi Samad bilan gapi gapiga qovushib, tezda chiqish ketadi. Oradagi do'stlik kundan-kunga iliqlashib, iliq munosabatlar kurtak yozadi.

HOY-U HAVAS QURBONI



Samad endi Gavharni xo'randalar-dan rashk qilib, arzimagan bahonalardan san-manga borib, arazlashib qolaveradi. Sababsiz kaltaklanishlardan, muhosasizlik va janjallardan bezgan Gavhar oxiri ishdan bo'shab ketishga majbur bo'ladi.

Oradan salkam uch yil o'tadi. Kunlarning birida Gavhargaga kutilmagan qo'ng'iroq bo'ladi:

– Tanimadim, kimman dedingiz? – taajublanib so'raydi u.

– Zoir akangman, esladimgi, ish yurituvchi? Bizning oshxonada ishlash ketganding-ku.

– Ha, esladim. Tinchlikmi?

– Bizga ishchi kerak edi. Sen halol, to'g'riso'z bo'lganing, ozoda ishlaganing uchun hammaga ma'qul eding. Agar yana bizda ishlashni xohlasang, albatta kelgin, ishga qayta olamiz.

– Xo'p, rahmat.

Qisqagina suhbat Gavharni o'ylantirib qo'yadi. «Maoshi ham tuzukkina edi, oshxonada yotoqxonasiyam bor, qaytib borsammikin?» deya ko'nglidan o'tkazadi. Zoiridan bir Samad haqida so'ramaganiga afsuslansa, bir «Nimayam deb so'vardim, axir...» deb o'zini o'zi koyidi.

Oshxonaga borib, Zoirga uchrasadi. Maoshi, shart-sharoitlarini kelishib, ish boshlaydi. Ko'p o'tmay Samadga ro'baro' bo'ladi. U esa biron so'z demay, qovog'ini uygancha tez-tez o'tib ketadi. «Aqli kirgani rost bo'lsin, Xudo xohlasa, tinch ishlayman», deya ko'ngli xotirjam tortadi Gavharning.

Afsuski, Samadning sukuti uzoqqa cho'zilmaydi. U hislarini jilovlay olmay, yana Gavharning atrofida o'ralashib qoladi. Spirtli ichimliklar ta'sirida beparda gaplar aytib, beandisha harakatlari qiladi.

– Endi sening nog'orangga o'ynaydigan ahmoq emasman! Sendan qo'rqmayman ham, tushundingmi?! Isqirt qo'llaringni tort mendan! – qaltirab bor ovozida baqiradi Gavhar. Go'yo shunday qilsa, nari ketadi, tinch qo'yadi deb o'ylaydi. Ammo yigit eshikdan haydasa, teshikdan kirib kelaveradi. Axiyri, bu haqda ish yurituvchiga aytib beradi.

– Samadni o'zim tartibga chaqirib qo'yaman. Kerak bo'lsa, erkakchasiga gaplashaman. Bexavotir ishlayver, – yapatgan bo'ladi Zoir.

Bayramlar bayramlarga ulanib, ish yurituvchi tomonidan barcha xodimlarga to'rt kunlik dam olish beriladi. Gavhar Farg'onaga, uyiga borib ota-onasini, yaqinlarini ko'rib,

ikkinchi kuni qaytib keladi. Oshxona yotoqxonasida yashab, o'z ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Uning boshqalardan ko'ra vaqtliroq qaytganidan xursand bo'lgan Samad o'zini mehribon ko'rsatishga, unga iliq so'zlar aytishga harakat qiladi. Uydagilarini, qanday borib kelganini so'raydi.

– Hamma yaxshi, rahmat, – samimiy munosabatdan ko'ngli yorishadi Gavharning.

– Kechka biron nima qilib bersang-chi, maylimi? – yanayam halimlashadi Samad.

– Mayli, ko'ndirdingiz, – deydi kulimsirab Gavhar.

Kechki ovqat mahali Samad o'zi bilan birga temir buyumlar savdosi

mad g'irt mast ahvolda kirib keladi. Gavharning yuragi taka-puka bo'lib, xonasining eshigini ichkaridan qulflab oladi.

– Bir og'iz gapim bor, chiq qol, iltimos. Axir, men seni o'shanda aldamagandim, chindanam uylanmoqchi edim, gulim.

– Siz hozir gaplashadigan ahvolda emassiz. Qolaversa, bu haqda umuman eslashni xohlamayman. Ayt-dim-ku, men o'zgardim. Bo'ldi! Boshqa sizning yo'rig'ingizga yurmayman!

– Meniki bo'lasan baribir! Eshityapsanmi?! Chiq buyoqqa! Chiq, deyapman!

Samad anchagacha eshik tagida g'udranib o'tiradi. Keyin jimlik

yerdagi dokalarni qornidagi jarohatga bosadi. Bir zumda hammayoq qop-qora qonga belanadi.

Qo'rquv va sarosimaga tushib qolgan Gavhar «Kim bor? Yordam ber-ing!» deb baqiradi. Shu payt yonidagi do'konda ishlaydigan ishchi chopib keladi. Samad o'ng qo'lini ko'kragiga bosganча bazo'r nafas olardi. Ishchi nima holat yuz berganini angolmay dovdirab:

– Do'stim, nima bo'ldi? Oyna kesib ketdimi? Ahvoling yaxshimi? Nega hammayoq qon? – deb so'raydi.

– Shifoxonaga... shifoxonaga olib bor. Tezroq... – holsiz iltijo qiladi Samad. Yo'lda do'stiga bo'lib o'tgan voqealarni, Gavharda hech qanday ayb yo'qligini aytadi.

– Mayli, keyin gaplashamiz. Mana, kasalxonaga yetib keldik. O'zingni ko'p urintirma, do'stim.

U Samadni suwab shifoxonaga olib kiradi. Afsuski, tibbiyot xodimlari ayni paytda jarroh yo'qligi bois bemorga yordam ko'rsata olmasliklarini, tezroq boshqa shifoxonaga olib borish zarurligini aytishadi. Zudlik bilan ular tavsiya etgan shifoxonaga borishadi. Samad ancha qon yo'qotgan, holdan toygan bo'lsa-da, hushi o'zida bo'lib: «Menga nima bo'lganda ham unutma, Gavharda ayb yo'q...» deb shifokorlar yordamida ichkariga kirib ketadi. Oradan ikki-uch daqiqa o'tgach esa shifokorlardan biri uning vafot etganini aytib, sabr tilaydi...

Sudning qora kursida o'tirgan Gavharni ham aslida oqlab bo'lmaydi. Negaki, u zo'ravonlik qurboni bo'lgani yo'q. Agar avval boshidanoq o'zi Samadga imkon bermaganida, nikohsiz munosabatlarga rozi bo'lmaganida, aldanib qolmasmidi? Aql bilan yurak olishuvida mustahkam irodaga ega bo'lgan kishilargina to'g'ri qaror qabul qila oladilar. Irodasizlik esa hech qachon yaxshilikka sabab bo'lmaydi...

Sudda Gavhar: «Aslida men o'zimni himoya qildim! Menda ayb yo'q!» deb har qancha faryod chekmasin, qonun barchaga barobar. Sud hukmiga ko'ra, unga 6 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Samadning esa ichkilikbozlik, havo nafs, hayvoniy hirs boshiga yetdi...

Sherzod ESHMATOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Yashnobod tuman sudi sudyasi.
Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



bilan shug'ullanadigan Mansurni ham boshlab keladi.

– Bayram bayramdek o'tsin-a, – deya stolga pivo shishasini do'qillatib qo'yadi Samad.

Ikki do'st astoydil ulfatchilik qilishadi. Keyin qo'llarini bir-birlarining yelkalariga tashlab ko'chaga chiqib ketishadi. Gavhar hammayoqni saranjom-sarishta qilib bo'lgan ham ediki, Zoir kirib keladi. Atrofini ko'zdan kechirib, Samadni so'raydi.

– Hozirgina shu yerda edi. Biron yumushingiz bormidi? – qarshisiga peshvoz chiqib so'raydi Gavhar. – Ertangi ovqat uchun barcha mahsulotlarni tayyor qilib qo'yganmiz.

– Yaxshi, ertadan ish boshlaymiz. Samad kelsa, manavi axlatlarni ko'zdan yo'qotsin, aytib qo'y.

Zoir hammayoqni bir-bir ko'zdan kechirib, ertaga barvaqt kelishini aytib ketadi. Vaqt allamahol bo'lganda, Sa-

cho'kadi. Gavhar uni ketdi deb o'ylab, tashqariga chiqmoqchi bo'lib eshikni ochadi. Avvaliga u ko'rinmaydi. «Uxlab qolibdi, shekilli», deb ko'nglidan o'tkazib turgan mahali qayerdandir Samad paydo bo'lib, Gavhargaga tashlanadi. Uning ko'zlari qonga to'lib, yuzlari bo'g'riqib ketgan edi. Gavhar jonholatda oshxona pichoqlardan birini olib, uni qo'rqitish uchun o'qталadi.

– Nari keting, bo'lmasa oxiri voy bo'ladi! Men jiddiy aytyapman! Yaqinlashmang!

Samadga bu do'q-po'pisalar kor qilmaydi. Hayvoniy hirs bilan qizning chap qo'lidan ushlab o'ziga tortganida, Gavharning o'ng qo'lidagi pichoq beixtiyor qorniga kirib ketadi.

– Voy, jonim! – og'riqdan dodlab yuboradi Samad.

Gavhar uning qornidan pichoqni shart sug'urib, stol ustiga qo'yadi, Samad esa oshxona ichiga kirib, o'sha

SALOMATLIK SABOQLARI

YALANGOYOQ YURISHNING FOYDASI

Rostini ayting, qachon bolalar kabi tuproqli yerda yalangoyoq yurgansiz? Bilmasam, deb yelka qisayotgandirsiz. Yalangoyoq yurishning salomatlik uchun naqadar foydali jihatlari bor ekanini bilganingizda edi...

Yalangoyoq yurish – tetiklashishning eng oson yo‘li. Sababi, yalang yurish oyoqdagi faol nuqtalarni rag‘batlantiradi. Bu, o‘z navbatida, butun organizmga ijobiy ta‘sir qiladi.

Shuningdek, mutaxassislar yalangoyoq yurishning asab tizimini, qon bosimini barqaror qilish, tanadagi modda almashinuv jarayonlarini yaxshilashda, organizmning immun tizimini mustahkamlashda ijobiy samara berishini alohida ta‘kidlashadi.

Yerda va tabiiy to‘shamlar ustida yalangoyoq yurganda oyoq ostidagi

biologik faol nuqtalar «qitiqlanib», ularning ishlashi jonlanib ketadi, tanadagi qon tezroq aylanadi. Bu esa barcha ichki a‘zolarining faol ishlashini ta‘minlaydi. Ayniqsa, issiq yoz kunlarida qizigan qum, tuproq, tosh ustida yalang yurib oyoqni chiniqtirish butun tana a‘zolarini chiniqtiradi, shamollash, revmatizm, oyoq bo‘g‘im kasalliklarining oldini oladi.

Bolalardagi yassioyoqlikni davolashda ham yalangoyoq yurish foydali hisoblanadi.

Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.



KO'PROQ SUV ICHING

Tibbiyot xodimlarining ta‘kidlashicha, suv tanaga quvvat bag‘ishlab, stressni yo‘qotadi. Toza ichimlik suvi tarkibida ko‘plab foydali elementlar mavjud, biroq hujayrali energetik almashinuv bundan ham muhimroq omil hisoblanadi. Siz bir vaqtning o‘zida tanangiz «batareyalari»ni to‘ldirasiz va keraksiz kuchlanishni olib tashlaysiz.

Suvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- * tanadagi boshqa oziq moddalarining yaxshiroq o‘zlashtirilishiga yordam beradi, tanani ularni qabul qilishga tayyorlaydi;

- * tanadagi keraksiz moddalar – toksinlarni chiqarib tashlaydi;

- * ortiqcha yog‘larni eritadi;

- * terini yaxshilaydi, soch va tirnoqlarni mustahkamlaydi;

- * buyrak funksiyasini yaxshilaydi, toshlar, tuz birikmalarining shakllanishiga to‘sqinlik qiladi;

- * qon tomirlarining arterial bosimini normallashtiradi, yurak-qon-

tomir tizimining faoliyatini yaxshilaydi;

- * tayanch-harakat tizimi, ya‘ni umurtqa pog‘onasi, suyaklar, bo‘g‘imlar, mushaklar va skelet suyaklari ishini yaxshilaydi;

- * bosh og‘rig‘idan xalos etadi.

Shuni yodda tutingki, suvning foydali xususiyatini his qilishni istasangiz, zararli aralashmalar, kimyoviy bo‘yoqlar, radioaktiv moddalar va oziq-ovqat qo‘shimchalari bo‘lmagan toza ichimlik suvini iching.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA tayyorladi.

ЗНАЕТЕ ЛИ ВЫ, ЧТО..?

Продолжительный просмотр телевизора утомляет не меньше,



чем сложная или рутинная работа, и даже может привести к синдрому хронической усталости.

* * *

Многочисленными исследованиями подтверждено, что шоколад



не только улучшает настроение, но и повышает математические способности.

* * *

Засыпать в обнимку полезно. Это позволяет лучше расслабить мышцы и освободить мысли от стресса, значительно повышая качество сна.

* * *



Затворнический образ жизни снижает иммунитет. А вот постоянный контакт с друзьями, близкими и любимыми людьми может усилить иммунную систему организма на 60%.

* * *

Сладкие напитки при постоянном употреблении способны нанести большой вред зубам.

* * *

Привычка хрустеть костяшками не наносит вреда суставам. Звук издают пузырьки воздуха,



возникающие в синовиальной жидкости, когда разъединяются «притертые» хрящевые пластинки.

* * *

Внешне спокойные люди, никогда не жалующиеся на жизнь, чаще страдают от продолжительных стрессов и скрытых тревог.

* * *

Люди, которые читают книги, живут в среднем на два года дольше, чем те, кто не читает вообще.



* * *

Стресс называют «тихим убийцей». Он способен сильно навредить сердечно-сосудистой системе, спровоцировать болевой дискомфорт в груди, привести к гипертонии.

* * *

Спать менее 4 или больше 10 часов в сутки вредно. Самое «здоровое» количество сна – 7-8 часов.



ЭЛИКСИР ЗДОРОВЬЯ

У натурального зеленого чая много полезных свойств, что научно доказано. Зеленый чай стимулирует работу мозга и замедляет процессы старения. Регулярное употребление чая помогает сбросить вес, эффективно влияя на процесс похудения. Зеленый чай снижает риск развития рака и диабета II типа, укрепляет сердечно-сосудистую систему, эффективен при лечении псориаза.

Главная польза чая заключена в высоком содержании полифенолов — мощных природных антиоксидантов. В состав зеленого чая входит особая разновидность этого вещества – катехины. Они связывают и выводят свободные радикалы, которые повреждают клетки и провоцируют болезни и старение организма, тем самым сдерживая воспалительные процессы. В 250 мл чая содержится 20-45% полифенолов, из которых 60-80% составляют катехины.

Экология

ПОДАРИ ДЕРЕВУ ДЫХАНИЕ

В республике проходят мероприятия в рамках акции «Подари дереву дыхание» («Дарахтга нафас беринг»).



Расчищаются основания деревьев от асфальта и бетона, с зеленых насаждений снимаются баннеры, провода, осветительные приборы.

– В частности, на сегодняшний день в Самаркандской области более 100 деревьев освобождены от бетонного и асфальтового плена, со 114 деревьев сняты рекламные баннеры и электроосвещение. В Андижанской области расчищены от асфальта и бетона основания 132 деревьев, с 85 сняты баннеры и электроосвещение. К виновным применяются

меры в соответствии с законодательством, – говорит пресс-секретарь Министерства экологии, охраны окружающей среды и изменения климата Лола Рахманбаева.

В мероприятиях совместно с экологами принимают участие представители общественности, сотрудники органов внутренних дел и Национальной гвардии.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

«АКТУАЛЬНЫЕ 30 ДНЕЙ»

В Узбекистане проводится комплекс дополнительных мероприятий по пожарной безопасности в рамках программы «Актуальные 30 дней». МЧС призывает граждан принять в них активное участие.



Организовываются профилактические встречи по обеспечению пожарной безопасности и предупреждению чрезвычайных ситуаций, даются разъясне-

ния, касающиеся правил хранения огнеопасных веществ, поведения при возникновении пожаров. Кроме того, объясняются правила использования первичных

средств пожаротушения, спасения людей и имущества при пожарах. Важно знать, что токсичные продукты горения, пониженная концентрация кислорода приводят к тяжелым отравлениям, гибели людей. В случае, если пожар уже случился, об этом необходимо немедленно сообщить по телефонным номерам «101», «112» или «1050». При передаче сообщения четко и внятно назвать адрес объекта, место возникновения пожара, свою фамилию.

Диляра ХАДРАЛИЕВА,
инспектор профилактики и обеспечения пожарной безопасности Дворца международных форумов «Узбекистан», капитан.

Совет ветеранов МВД Республики Узбекистан извещает о кончине подполковника в отставке

Рауфа Зинуровича САЙФУЛИНА

и выражает искренние соболезнования родным и близким покойного.

ИИБ Бирлашган тахририяти жамоаси тахририятнинг Қорақалпоғистон Республикаси буйича ўз мухбири Азамат Пирниязовга акаси

Кенгесбай ПИРНИЯЗОВнинг

вафот этганлиги муносабати билан чуқур ҳамдардлик билдиради.

MUNAJJIMLAR BASHORATI

(22-iyuldan – 28-iyulgacha)



Qo'y. Bu davrda salomatlikka jiddiy e'tibor qarating. Jismonan og'ir vazifalardan chetlashib, ta'bni xira qiluvchi va ko'ngilni og'rituvchi barcha holatlardan uzoqlashing. Ba'zi vaziyat va muammolar kayfiyatingizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yaqin va qadrdon insonlar sizni qo'llab-quvvatlashadi.



Buzoq. Haftaning ilk kunlari oilaviy va shaxsiy munosabatlarni yo'lga qo'yish uchun omadli palla. Biroq bu davrda mablag' sarflash tavsiya etilmaydi. Hafta so'ngida belgilangan rejalarini amalga oshirish imkoniyati bo'lmasa-da, ijobiy to'lqinga moslashishga harakat qiling.



Egizaklar. Ushbu hafta sizdan katta mas'uliyat talab etadi. Barcha ishlarni kunlarga to'g'ri taqsimlab, tartib va aql-idrok bilan amalga oshirishga urining. Payshanba yangi imkoniyatlar va muvaffaqiyatlar tuhfa etadi. Haftaning ikkinchi yarmida salomatligingizga jiddiy e'tibor qarating.



Qisqichbaqa. Kasbiy faoliyatingizda yuksalish kuzatilib, ish unumdorligi ortadi. Bu boradagi uchrashuv va suhbatlar muvaffaqiyatli kechadi, rejadagi har bir ishni ortga surmay, o'z vaqtida bajarishga harakat qiling. Dam olish kunlari yaqinlar bilan munosabatlarni mustahkamlash uchun maqbul davr.



Arslon. Bu davrda imkon qadar ishsiz o'tirmang, chunki kelayotgan hafta moddiy holatni anchayin yaxshilab olish uchun barcha imkoniyatlarni taqdim etadi. Hayotingizga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan odamlar bilan tanishish ehtimoli yuqori. Shanba kuni o'ta ishonuvchanlik sizga pand beradi. Yakshanba kuni har jabhada ijobiy natijalar kutilmoqda.



Parizod. Haftaning birinchi yarmida salbiy fikr va munosabat bildirishdan tiyiling. Aks holda, kelishmovchiliklar uzoq davom etib, ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin. Lekin haftaning keyingi kunlari barcha ishlar uchun omadli bo'lishni va'da qilmoqda. Yakshanba kuni oila davrasida hordiq chiqaring.



Tarozi. Haftaning birinchi yarmida zimmangizdagi majburiyatlar yuki ortishiga qaramay, barcha muzokaralar omadli kechadi va ish munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, bu davrda o'z salomatligingizga jiddiy e'tibor qaratishni unutmang.



Chayon. Hafta boshida kutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Sog'liqqa e'tiborli bo'ling, chunki shu kunlarda jarohat olish yoki eski xastaliklarning qaytalanishi kuzatilishi mumkin. Bu davrda maishiy masalalarni hal etish bilan ovora bo'lasiz. Haftaning so'nggi kunlari jiddiy xaridlar va investitsiyalar uchun qulay payt.



O'qotar. Ulkan ish rejalarini tuzishga oshiqmang, kutilmagan xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling, negaki, bu haftada kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin. Imkon qadar atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarga bormang.



Tog' echkisi. Bu hafta siz uchun juda samarali va omadli keladi. Oilaviy yumushlarda ko'p narsaga ulgura olmasangiz ham, ish joyingizda barcha vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirasiz. Moliyaviy masalalarda ham qiyinchilikka duch kelmaysiz. Uy uchun biron narsa xarid qilish niyatida bo'lsangiz haftaning so'nggi kunlarida amalga oshiring.



Govg'a. Chorshanba kunidan boshlab yangi loyihalar uchun omadli onlar kirib keladi. Hafta so'ngida ish faoliyatingiz va moliyaviy masalalarga e'tibor qarating. Ushbu palla ishbilarmon odamlar o'z mahsulotlarining xususiyatlari va foydali tomonlarini ko'rsatib berishi uchun juda qulay.



Baliq. Begim kunlari salbiy holat va munosabatlarga ta'sirchanligingiz ortadi. Uy tashvishlari, oilaviy munosabatlar xayollaringizni butunlay qamrab oladi. Nima bo'lganda ham, o'zingizni qo'lga olib, hayot va uning tashvishlariga xotirjamlik bilan qarang.



KUHLILAR HAMISHA G'OLIB

Ichki ishlar organlarida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish maqsadida bir qator sport tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Navoiy shahrida yunon-rum kurashi va erkin kurash bo'yicha «Ichki ishlar vaziri kubogi» musobaqalari o'tkazilgani ham fikrimiz tasdig'idir.



Unda mamlakatimizning barcha hududlaridan kelgan 200 nafarga yaqin polvonlar o'zaro kuch sinashdi. Bellashuvlar qizg'in, murosasiz ruhda

o'tib, hakamlar tomonidan xolislik bilan baholab borildi.

Ayniqsa, hal qiluvchi final bosqichi nihoyatda shiddatli kechdi. Pirovard

natijada omad kuchlilarga kulib boqdi. Erkin kurash bo'yicha bahslarda umumjamoa hisobida Navoiy va Sirdaryo viloyatlari IIB jamoalari 3-o'rinni, IIV huzuridagi JIED 2-o'rinni qo'lga kiritdi. G'oliblik shohsupasiga esa poytaxtlik polvonlar ko'tarilishdi.

Yunon-rum kurashi bo'yicha 3-o'ringa Jizzax va Toshkent viloyatlari IIB jamoalari sazovor bo'lishdi. Faxrli 2-o'rin musobaqa mezbonlariga nasib etdi. Barcha raqiblarini dog'da qoldirgan IIV huzuridagi JIED xodimlari esa birinchi o'rinni egallashdi.

– Sportchilarga barcha sharoitlar yaratib berilgani uchun tashkilotchilardan minnatdormiz, – deydi 130 kg vazn toifasida yunon-rum kurashida ikkinchi o'rinni, erkin kurashda esa birinchilikni qo'lga kiritgan Toshkent shahar IIBB jamoasi a'zosi Shahdir Aslonov.

– Ushbu musobaqalar g'oliblaridan kelgusida alohida terma jamoa shakllantirib, xalqaro va respublika miqyosidagi chempionatlarda ishtirok etishni rejalashtirganmiz, – deydi musobaqa bosh hakami, IIV Jismoniy va jangovar tayyorgarlikni tashkil etish boshqarmasi MTB inspektori, mayor Sherzod Dekanbayev.

Musobaqalar yakunida g'olib va sovrindorlarga, shuningdek, hakamlar va hamkor tashkilotlar vakillariga IIVning tashakkurnomalari, qimmatbaho esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Temir QURBONOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №2445.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 45298 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.